


ONAXON JABBOROVA,
DINORAXON SAPARBAYEVA

BOSHLANG'ICH
SINFLARDA MUSTAQIL
TA'LIMNI TASHKIL QILISH
METODOLOGIYASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Onaxon Jabborova, Dinoraxon Saparbayeva

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA
MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL
QILISH METODOLOGIYASI**

«Renesains sari»
Toshkent – 2024

UO'K 373.167.1
KBK 74.20
J-13

Jabborova O.M., Saparbayeva D.T. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi tashkil qilish metodologiyasi. Monografiya.
– Toshkent, 2024. – 100 b.

Mazkur monografiyada Yangi O'zbekiston taraqqiyoti sharoitida boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi tashkil qilishning zamonaviy metodologiyasi yoritilgan. Unda mustaqil ta'limdi tashkil qilishning ilmiy, metodik asoslari va samaradorligini baholash masalalari ishlab chiqilgan. Monografiyani tayyorlash jarayonida "O'zbekiston-2030" strategiyasida boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishish vazifalarini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratildi.

Monografiya olyi pedagogik ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari, magistrantlari, amaliyotchi boshlang'ich sinf o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va muammo bilan qiziquvchi keng jamoatchilikka mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Mardonov Shukurullo Qo'ldoshevich – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Umarova Zuhra Abduraxmanova – Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Po'latova Dildora Turgunovna – Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar kafedrasи mudiri pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

UO'K 373.167.1
KBK 74.20

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy-texnik
Kengashi tomonidan nashriga tavsiya etilgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMI
FAN VA TAVSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ISBN 978-9910-9414-7-4

AXBOROT RESURS MARKAZI

MUNDARIJA

KIRISH	4
I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING ILMIY ASOSLARI.....	5
1. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim mazmuni.....	5
1.2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi tashkil qilish manbalari	14
1.3. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi tashkil qilishning ilmiy masalalari	22
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	27
II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING METODIK OMILLARI	29
2.1. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi tashkil etishning samarali metodlari	29
2.2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasi	44
2.3. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi to'garak mashg'ulotlari vositasida tashkil qilish metodikasi	51
2.4. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi individual yondashuv asosida tashkil qilish metodikasi	58
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	64
III-BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA'LIMMING SAMARADORLIGI DIAGNOSTIKASI	66
3.1. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limdi tashkil etish amaliyoti	66
3.2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limming samaradorligini baholash	79
3.3. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limming istiqbolli tashhisi	85
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	89
XULOSA VA TAVSIYALAR	91
GLOSSARIY	93
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	97

KIRISH

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan sifatli ta’limga erishish vazifalari ijrosi jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuksaltirish alohida o‘rin tutadi. Bunda quyidagilarga asoslanish ustuvor maqsad sifatida belgilanganligini eslatib o‘tish joiz:

birinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hozirgi o‘zlashtirish holatini saqlash va rivojlantirish;

ikkinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini xalqaro ta’lim dasturlari talablari va xorijiy mammakatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari darajasiga olib chiqish;

uchinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish holati va darajasini o‘rganib borish hamda baholash.

Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish shakllarini kengaytirib borish va noan’anaviy vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Shu ma’noda bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda *mustaqil ta’limni* tashkil qilish metodikasini tadqiq etish va ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi.

Mazkur monografiyada ana shu masala tadqiq etildi. Monografiyani tayyorlash jarayonida quyidagi masalalarining yoritilishiga asosiy e’tibor qaratildi:

boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning ilmiy asoslari;

boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning metodik omillari;

boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning samaradorligi diagnostikasi;

boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning istiqbolli yo‘nalishlari.

Ushbu masalalar bo‘yicha monografiyada amalga oshirilgan tahlillar pedagogik manbalarga yangicha yondashish, me’yoriy hujjatlardan oqilona foydalanish va pedagog olimlarning ilmiytadqiqotlarida bayon qilingan tavsiyalarni hisobga olish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Shu sababli bu borada mualliflarning individual yondashuvlari o‘z ifodasini topganligini eslatib o‘tamiz.

Monografiyaga doir fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL QILISHNING ILMIY ASOSLARI

1. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim mazmuni

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida sifatli ta’limga erishish vazifasi qo‘yilib, uning ijodiy natijalariga 2030-yilga qadar erishish belgilangan. Bunda ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini sifat mezonlari asosida rivojlantirib borish muhim o‘rin tutadi. Shu sababli bunda o‘qitishning noan’anaviy shakllari va yangicha vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Mustaqil ta’lim – ana shunday noan’anaviy va yangicha vositalarga asoslangan ta’lim shakllaridan biridir. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilish mazmuni masalasi tahliliga tortamiz.

“Mustaqil ta’lim” tushunchasi mazmuni. Mustaqil ta’lim – bu ta’lim oluvchilar tomonidan erkin va mustaqil ravishda bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish shaklidir.¹ Shu ma’noda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- a) o‘zlashtirganlarni mustahkamlash;
- b) qo‘srimcha ma’lumotlar olish;
- v) qo‘srimcha materiallarni o‘rganish.

O‘zlashtirganlarni mustahkamlash deganda muayyan mavzu bo‘yicha olingen bilimlarni kengaytirish, o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish nazarda tutiladi. Buning uchun ta’lim oluvchi mustaqil ravishda tegishli o‘quv adabiyotlari bilan tanishishi taqozo etiladi. O‘quv adabiyotlarining eng asosiyalarini darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tashkil etadi. Mazkur o‘quv adabiyotlari asosida muayyan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malaka mustahkamlanadi.

Qo‘srimcha ma’lumotlar olish – bu turli axborot va internet jahon axborot tarmog‘ida mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zlashtirish hamda o‘rganishdir. Shu jihatdan qo‘srimcha ma’lumot aynan yangi axborotlar majmuidan iborat bo‘ladi. Mazkur masalaga alohida

¹ Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent, 2009. 355-b.

e'tibor berish kerak. Chunki qo'shimcha ma'lumot deganda avvalo muayyan mavzular yoki muammolar bo'yicha yangi ma'lumotlar nazarda tutiladi.

Qo'shimcha materiallarni o'rganish deganda o'quv adabiyotlariga yordamchi tariqasida nashr etilgan yoki elektron nuxsali axborotlar tushuniladi. Bunday materiallarning asosiyalarini tezis, uslubiy ko'rsatma, o'qituvchi kitobi hamda yordamchi darsliklar tashkil qiladi. Bu masalalarga ham alohida e'tibor berish kerak. Chunki qo'shimcha materiallarni o'zlashtirish deganda eng avvalo ularning manbaini bilish metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Mustaqil ta'limgazmunda ana shu mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar va qo'shimcha materiallarni o'rganish nazarda tutiladi. Bunda ta'limgaz oluvchilar asosan o'zining mustaqil faoliyatiga tayanadi va professor-o'qituvchilar ularni yo'naltirish vazifasini bajaradi. Mustaqil ta'limgazmunda eng avvalo ta'limgaz oluvchini kasbiy faollashtirish va metodik qurollantirish nazarda tutiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'limgaz jarayonida o'qitilayotgan o'quv fanlarining muayyan qismini mustaqil ta'limgaz bo'yicha mavzular va topshiriqlar tashkil etadi. Bu o'quv shakli XVII asrda Yevropa mamlakatlarda paydo bo'lganligini eslatib o'tish joiz. Buning natijasida keyinchalik Yevropa mamlakatlarda mustaqil ta'limgaz vositasida o'rta maxsus va oliy ta'limgaz olish shakkiali ham tarkib topdi. Mamlakatimizda mustaqil ta'limgaz deganda ta'limgaz oluvchilarining nazariy, metodik va kasbiy jihatdan chuqur tayyorgarligini amalga oshirish nazarda tutiladi. Shu sababli ta'limgazning bu shakli o'quv jarayonining eng muhim qismlaridan biri sifatida belgilangan.

Mustaqil ta'limgaz o'quv shaklini tashkil etishda asosiy e'tibor ta'limgaz oluvchilarining ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi to'g'risida pedagogik olimlar yakdil fikr bildiradilar. Shu jihatdan quyidagilarga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega:

- a) ta'limgaz oluvchilarining ichki dunyosini rivojlantirish;
- b) ta'limgaz oluvchilarining his-tuyg'ularini tartibga solish;
- v) ta'limgaz oluvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini tarkib toptirish.

Ta'limgaz oluvchilarining ichki dunyosi – bu ruhiy his qilishi, bilimgaz chanqoqligi va o'zligini anglashga bo'lgan intilishlar

majmuidan iborat. Shu sababli bu borada eng avvalo ta'limgaz oluvchilar ruhiy ko'tarinkilik va ruhiy tasavvur ko'nikmalarini shakllantirishga e'tibor berish muhim hisoblanadi. Chunki ruhiyatga ega ta'limgaz oluvchilar bilim manbaini o'zlashtirishga bo'lgan ruhiy imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zbek milliy pedagogikasi tajribasida ta'limgaz oluvchilarining ruhiyatini tarkib toptirish masalasiga avvaldan e'tibor berib kelingan. Misol uchun, bu borada Abu Ali Ibn Sino (XI asr) "Najot" asarida bolalarni yoshlikdan boshlab ruhiyatini shakllantirish va unda tarbiyachilarining (onalar, enagalar va ustozlarning) ruhiy ko'tarinki sifatga ega bo'lishi masalasini tahlil qilib bergan. Shu sababli qadimgi boshlang'ich muktablarda ruhiy jihatdan yetuk shaxslar bolalarning ruhiyatini shakllantirish va ularni bilim olishga tayyorlash ishlari bilan shug'ullanishgan. Shuningdek, ta'limgaz oluvchilarining ichki dunyosida bilimgaz bo'lgan chanqoqlik ham muhim o'rinn tutadi. Bunda Sharq va G'arb pedagoglari bolalarda bilimgaz chanqoqlik tuyg'usining tabiiy bo'lishi to'g'risida bir fikrga kelganlar. Shu sababli ta'limgaz oluvchilarining bilimgaz chanqoqlik tuyg'ularini to'g'ri rivojlantirish ularning ichki dunyosini tartibga solishda muhim o'rinn tutadi. Bundan tashqari, ta'limgaz oluvchilarining o'zligini anglashga bo'lgan harakatlari ham ularning ichki dunyosi hosilasi hisoblanadi. O'zlikni anglashda o'z ota-onasi, millati va xalqining qadriyatlarini to'g'ri o'zlashtirish muhim o'rinn tutadi. Bu borada rus pedagog mutafakkiri Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning (XIX asr) "Tarbiyada xalq ruhi" asaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda xalq ruhi vositasida ta'limgaz oluvchilarining o'zligini anglatish metodikasi ishlab chiqilgan. Mazkur metodikaga ko'ra, ta'limgaz oluvchilar butun umri davomida o'zligini anglashda davom etadi. Demak, boshlang'ich ta'limgaz jarayonida o'quvchilarining o'zligini anglash tuyg'usini to'g'ri yo'naltirish ularning ichki dunyosini rivojlantirishdagi eng muhim vositalardan biridir. Bularning barchasi ta'limgaz oluvchilarining ichki dunyosini rivojlantirish asosida mustaqil ta'limgaz tayyorlash asoslari hisoblanadi.

Mustaqil ta'limgaz tashkil etishda ta'limgaz oluvchilarining his-tuyg'ularini (emotional xususiyatlarini) to'g'ri rivojlantirish ham ularning ko'nikmalarini tarkib toptirishda muhim ahamiyatga ega. Bunda ta'limgaz oluvchilarining asosiy his-tuyg'ulari tarkibini sezish,

fahmlash va tushunish tashkil qiladi. Shu jihatdan sezish vositasida ta'lim oluvchilar o'zlashtirayotgan bilimlaridan amaliy taassurot oladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda tajribali o'qituvchilar o'quvchilarning eng avvalo sezish tuyg'usini to'g'ri yo'naltirishga e'tibor qaratishadi. Chunki bola ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida ularning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ichki tuyg'u bilan payqaydi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining fahmlash tuyg'usini to'g'ri rivojlantirish bilan ularni mustaqil ta'limga tayyorlash mumkin. Unga ko'ra, o'quvchi sezgir va ogohlilik tuyg'ulariga ega bo'lishi, o'zlashtirayotgan bilim va ma'lumotlarni his qilishi hamda o'zining ichki munosabatini bildirish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Shu jihatdan ta'lim oluvchilarning fahmlash tuyg'usini to'g'ri rivojlantirish mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilishning muhim omillaridan biridir. Bundan tashqari, ta'lim oluvchilarning tushunish ko'nikmasini ham to'g'ri tarkib toptirish mustaqil ta'lim uchun muhim omillardan hisoblanadi. Bunda o'quvchilar har bir ma'lumot, bilim va yoki taqdim etilayotgan vositalarga tushunish orqali munosabatda bo'lishi kerak. Mazkur masala oliy pedagogik ta'lim jarayonida ham dolzarb hisoblanadi. Unga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tushunish ko'nikmasini yuksak darajada tarkib toptirish muhimdir. Bunda tushunish deganda nafaqat bilimlar manbaini, balki ta'lim oluvchilarning ruhiy, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini tushunish ham nazarda tutiladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning tushunish ko'nikmasini to'g'ri shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tushunish ko'nikmasiga ega bo'lmasdan mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonini o'zlashtirib bo'lmaydi. Shu sababli ta'lim oluvchilarning tushunish ko'nikmasini muntazam takomillashtirib borish mustaqil ta'lim jarayoni uchun muhim asos yaratishlardan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning eng asosiy manbalaridan biri ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishdir. Unga ko'ra, ta'lim oluvchilarda fikrning paydo bo'lishi, ularning o'z fikrlarini to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan qat'iy nazar to'g'ri ifodalay olishi hamda fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishiga e'tibor berish muhimdir. Fikr – sezgi, his-tuyg'u va fahmlashning hosilasidir. U dastlab ta'lim oluvchi ongida g'oya sifatida paydo

bo'ladi, bu g'oya aqliy rivojlanishning turkisi bilan ma'lumotlar asosida boyiydi va fikrga aylanadi. Shu sababli ta'lim oluvchilarning yosh yoki jismoniy xususiyatlaridan qat'iy nazar ularning fikrlash jarayonini buzmaslik lozim. Ta'lim oluvchi fikrlash jarayonida to'g'ri yoki noto'g'ri, ijobjiy yoki salbiy fikrlarga kelsa-da, lekin ularni ifodalashda aqliy mushohadadan o'tkazadi. Bu refleks Ivan Pavlov (XX asr) tomonidan ilmiy asoslab berilganligi ma'lum. Shu jihatdan ta'lim oluvchilarni faqat fikrlashga o'rgatish ularning mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarkib toptirishning eng muhim tayanchidir. Ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini fikrlashga o'rgatishda ularning tasavvurlari, taassurotlari va sezgilari tuyg'ulariga asoslanish pedagogik va psixologik nuqtai nazardan muhim ahamiyatga egadir. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ham fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki talabalar o'rtasida hamon o'z fikrlarini ochiq bildirishga tortinadiganlari ham uchraydi. Ularning qalbida fikrning to'g'ri yoki noto'g'riliqi to'g'risida ikkilanishlar mavjud bo'ladi. Shu sababli biz samarali hisoblaydigan metodikalardan biri bu borada shuki, ta'lim oluvchilarni o'zlarining fikrlarini to'g'ri yoki noto'g'riliqi, ijobjiy yoki salbiy xususiyatlarga egaligidan qat'iy nazar ochiq va erkin ifodalashga o'rgatish lozim bo'ladi.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'limni tashkil etishning bunday asoslari muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik ta'kidlangan ko'nikmalarni shakllantirish maktab ta'limi bilan cheklanadi, degan fikrdadir. Aslida, ta'lim oluvchilarning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirib borish ta'lim jarayonida doimiy davom etadigan muhim masaladir.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, har bir mamlakatda mustaqil ta'limni tashkil etishning o'z mazmunlari belgilab olingan. Shu jihatdan mamlakatimiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'limdan oliy ta'limga qadar bo'lgan ta'lim bosqichlarida mustaqil ta'limni tashkil etishning asoslari, tayanchlari va uning mazmuniy omillarini belgilab olish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada oliy pedagogik ta'lim jarayonida nazariy va metodik tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki ko'pchilik mustaqil ta'lim tushunchasi mazmuni bo'yicha umumiylar xarakterdag'i tushunchalar

bilan cheklanib qolayotganligini eslatib o'tish lozim. Bu borada ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini keng ko'lamli tarkib toptirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim amaliy ahamiyatga egadir.

Mustaqil ta'limni tashkil qilish zaruriyati. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi jarayonida mustaqil ta'limni tashkil qilish zaruriyati bir necha omillar bilan belgilanadi. Bunday omillarning eng muhimlari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishini takomillashtirish;
- 2) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini xalqaro baholash dasturlari talablari darajasiga yuksaltirish;
- 3) boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalardan foydalanishga o'rgatish;
- 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirganlik ko'rsatkichlarini va darajasini o'rganib borish hamda baholash.

Mazkur zaruriyatlar bugungi kunda muhim ilmiy va amaliy o'qitish vositalaridan biri bo'lgan mustaqil ta'limni tashkil qilish asoslarini belgilaydi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishini takomillashtirish zaruriyat bo'lib turibdi. Buning uchun aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlari kesimida o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini muntazam rivojlantirib borish taqozo etiladi. Ayniqsa, mazkur fanlar turkumidagi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarida tenglikka erishish dolzarb vazifalardan biridir. Bunda mustaqil ta'limning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishning yana bir zaruriyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini xalqaro baholash dasturlari talablari darajasiga yuksaltirishdan iborat. Chunki bugungi kunda 2021-2022 o'quv yilidan boshlab boshlang'ich ta'lim jarayoniga xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Bunda TIMSS, PISA va STEAM xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va malakalarni o'zlashtirish darajasini yuksaltirib borish muhim o'rinn tutadi. 2023-yilda o'tkazilgan PISA xalqaro baholash ta'lim dasturi asosidagi tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarini va o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish

zaruriyat bo'lib turganligi namoyon bo'ldi. Shu ma'noda xalqaro ta'lim dasturlari talablari asosida bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb bo'lib turibdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalardan foydalanishga o'rgatish boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil qilishning navbatdagi zaruriyatlaridan biri hisoblanadi. Buning uchun o'quvchilar o'zları o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini faoliyatda qo'llay olishi, notanish va murakkab sharoitlarda ulardan foydalanishni bilishi hamda faoliyat davomida bilim va ko'nikmalarning amaliyot bilan bog'lay olishi kabilarni tarkib toptirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Bunda mustaqil ta'lim kabi amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish shakli kutilgan samarani beradi. Chunki mustaqil ta'lim o'quvchilarini o'zi ustida ishlash vositasida bilim va malakalardan oqilona foydalanishga yo'naltiradi. Shu sababli bu masalaga alohida e'tibor berish bugungi kundagi pedagogik vazifalardan biri bo'lib turibdi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishning navbatdagi zaruriyati boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari va darajasini o'rganib borish bilan belgilanadi. Bunda aniq, tabiiy va gumanitar fanlar kesimida o'quvchilarining o'zlashtirish jarayonini o'quv yili choraklari asosida tashxislab borish, tashxis natijasida olingen ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida o'zlashtirish jarayonini rivojlantirishga yo'naltirilgan tavsiyalarni ishlab chiqish taqozo etiladi. Bunda mustaqil ta'limning imkoniyatlaridan keng foydalanish va o'rganish hamda baholash jarayonini xolis ekspertlar ishtirokida o'tkazish muhim ahamiyatga egadir. Eslatib o'tish lozimki, mustaqil ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish jarayonini o'rganishda erkinlik, talabchanlik va xolislik omillarini beradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish muhim zaruriyatlar bilan belgilanadi.

Mustaqil ta'limning amaliy ahamiyati. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil etish muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) mustaqil ta'lim o'quvchilarining ongi va dunyoqarashini kutilgan darajada rivojlantiradi;

2) mustaqil ta'lim o'quvchilarda o'zlashtirish va tushunish ko'nikmalarini talab darajasida tarkib toptiradi;

3) mustaqil ta'lim o'quvchilarni faoliyatga tayyorlaydi.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim o'quvchilarining ongi va dunyoqarashini kutilgan darajada rivojlantirish imkonini beradi. Unga ko'ra, o'quvchilar ongida bilim olish g'oyasi, fikrlar majmui va tuyg'ular ko'lami tarkib topadi. Shu jihatdan bilim olish g'oyasi aynan mustaqil ta'limning amaliy jihatiga asosan tarkib topadi, fikrlesh ko'nikmasi esa mustaqil ta'lim yuzaga keltiradigan muhim ko'nikmalardan biridir va o'quvchilarda sog'lom estetik tuyg'ularning tarkib topishida mustaqil ta'lim tayanch vazifasini bajaradi. Bularga sabab mustaqil ta'limning erkinlik tamoyiliga tayanishidir. Bundan tashqari, mustaqil ta'lim o'quvchilarining dunyoqarashini maqsadli tarkib toptiradi. Unga ko'ra, o'quvchilarda ijtimoiy holatlarga moslashish, o'zligini anglash va o'zgalarni tushunish tushunchalari paydo bo'ladi. Buning natijasida ularning ijtimoiy dunyoqarashi mustaqil tarkib topadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi va dunyoqarashini rivojlantirishda mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchi mustaqil ta'lim jarayoniga erkin harakat qiladi va mustaqil ta'limga o'qituvchilar, ota-onalar yoki jamoatchilik vakillari aralashmaydi. O'qituvchi bu jarayonda faqat yo'naltiruvchi va kuzatuvchi vazifasini bajaradi. Demak, mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongi va dunyoqarashini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hamda bu metodika bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida qurollantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri bo'lib turibdi. Bu masala bo'yicha pedagog olimlar va tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining hamkorlik tizimini yo'lga qo'yish hamda unga tayanish bizningcha, amaliy samarani beradi.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim o'quvchilarining o'zlashtirish va tushunish ko'nikmalarini maqsadli tarkib toptiradi. Chunki o'quvchilar o'zлari qiziqqan va xohlagan ma'lumotlar, matnlar hamda masalalar ustida ishlab, ularni erkin o'zlashtiradi. Erkin o'zlashtirish jarayoni boshlang'ich sinf o'quvchilarida tushunish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayoniga joriy etilayotgan 4K modeli bo'yicha

ko'nikmalarni tarkib toptirish aynan mustaqil ta'limning tajribalari asosida yuzaga kelganligini eslatib o'tish joiz. Chunki mazkur modelni ishlab chiqqan Kembridj kolleji uzoq asrlik mustaqil ta'lim tajribasiga ega bo'lganligi bilan Pedagogikada e'tirof etilgan. Shu ma'noda mustaqil ta'lim vositasida o'quvchilarining o'zlashtirish va tushunish ko'nikmalarini bugungi kun talablari asosida rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish taqozo etiladi. Bunda pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va ularni yangi metodikalarga o'rgatish kurslari vositasida amaliy faoliyatdagি boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim metodikasi bo'yicha malakalarini kuchaytirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Negaki, kelgusida asosiy e'tibor boshlang'ich sinf o'quvchilarining tushunish va o'zlashtirish ko'nikmasini amaliyot bilan bog'lab tarkib toptirishga qaratiladi. Bunda mustaqil ta'lim metodikasi tayanch vazifasini bajarishini eslatib o'tish joiz.

Boshlang'ich ta'limda tashkil etiladigan mustaqil ta'lim shakli boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlovchi muhim tizim ekanligini idrok etish kerak. Unga ko'ra, mustaqil ta'lim o'quvchilarining erkin harakatlari vositasida ta'lim, tarbiya va o'qishning keyingi bosqichlariga tayyorlash jarayonini amalga oshiradi. Mustaqil o'qib-o'rganish o'quvchilarining mustaqil harakat faoliyatini kuchaytiradi, o'zgalardan ibrat olish vositasida o'quvchilarda tarbiyaviy ko'nikmalar paydo bo'ladi va ular boshlang'ich ta'limdan keyingi o'qish jarayoni to'g'risida aniq tasavvurlarga ega bo'ladi. Shu sababli Germaniya, Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarda mustaqil ta'lim vositasida o'quvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlash ishini amalga oshirish bo'yicha o'ziga xos tajribalar mavjud. Bunda o'quvchilar 3-sinfdan boshlab maxsus tarzda kasb, hunar va faoliyat turlari bilan tanishtirila boshlaydi. Bu tanishtiruv har bir o'quvchining vaqtini hisobga olib individual tarzda amalga oshiriladi va buning natijasida o'quvchining faoliyatga tayyorlik ko'nikmasi amaliy tarkib topadi. Shu jihatdan mamlakatimizda boshlang'ich sinf rahbarlari boshchiligidagi boshlang'ich ta'limning turli vositalaridan foydalangan holda o'quvchilarini faoliyatga yo'naltirish va tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masala bo'yicha oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy kompetensiya bilan

qurollantirilishi muhim ahamiyatga egadir.

Diqqat qilinsa, mustaqil ta'limning ahamiyati muhim amaliyot bilan bog'langanligidan iboratdir. Shu sababli mazkur masalalarни o'zlashtirish va idrok etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim mazmuni uning ma'nosi, xususiyatlari hamda amaliy ahamiyatini bilan belgilanadi. Bu borada ta'kidlangan xulosalar va tavsiyalarni o'zlashtirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki mustaqil ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'z mustaqil faoliyatlarini vositasida bilim, tarbiya va faoliyatga tayyorlash tayanchlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalalar oliv pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi tavsiya etiladi.

1.2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish manbalari

Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish uchun uning manbalarini o'rganish va o'zlashtirish muhim ahamiyatiga ega. Chunki mustaqil ta'limni tashkil qilish manbalari o'ziga xos g'oyalar, yondashuvlar va metodikalar bilan qurollantiradi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning eng muhim manbalari tahliliga tortamiz.

Mustaqil ta'limning me'yoriy asoslari. Mamlakatimizda mustaqil ta'limning me'yoriy asoslari o'ziga xos tarzda ishlab chiqilgan. Mazkur me'yoriy asoslarning eng muhimlarini quyidagilar tashkil etadi:

- a) milliy qonunlar;
- b) ta'limga oid me'yoriy hujjatlar;
- v) mamlakatimizda e'tirof etilgan xalqaro ta'lim dasturlari.

Mustaqil ta'limning eng muhim me'yoriy asosini yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil), "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil), "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun tashkil etadi. Bu qonunlarda mustaqil ta'limning me'yoriy asoslari, talablari va standartlari belgilab qo'yilgan. Shu ma'noda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida "har kim kasb va faoliyat

turini erkin tanlashi" belgilab qo'yilgan. Bunda mustaqil ta'lim vositasida kasb va faoliyat turlari asoslarini chuqurlashtirilgan tarzda o'zlashtirish nazarda tutilgan. Shu ma'noda bu o'rindagi *erkinlik* tushunchasi mustaqil o'qib-o'rganish ma'nosini anglatadi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham mustaqil ta'lim olish asoslari belgilangan. Misol uchun, ushbu qonunning 4-moddasida "Bilimdonlik, qobiliyatilik va iste'dodlilik rag'batlantirilishi" qayd etilgan. Shu ma'noda mustaqil ta'lim olish eng avvalo bilimdonlikni rivojlantirishdir. Buning natijasida ta'lim oluvchining qobiliyati va iste'dodi takomillashadi. Shu tariqa mazkur sifatlarga ega ta'lim oluvchilar jamiyat tomonidan rag'batlantiriladi, ya'ni ularni kasbiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Shuningdek, "maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunda ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining mustaqil ta'lim olish asoslari ham belgilab qo'yilgan. Unda mazkur pedagog xodimlar va tarbiyachilar o'z kasbiy mahorati ustida ishchlari qayd etilgan.

E'tibor berilsa, mamlakatimiz qonunchiligidagi mustaqil ta'limning huquqiy va pedagogik asoslari ehtiyoj darajasida belgilangan bo'lib, ularni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zaruriyat hisoblanadi.

Mustaqil ta'limning me'yoriy asoslarining eng muhim qismini ta'limga oid hujjatlar tashkil etadi. Bunday me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining Qarorlari bilan tasdiqlanadi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydag'i 287-sont Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi" ana shu me'yoriy asoslarning birlamchi manbai hisoblanadi. Mazkur Milliy malakalar ramkasida mustaqil ta'limning asoslari sifatida "bilimlar, mahoratlar, ko'nikmalar va kompetensiyalarni uyg'unlashtirish" belgilangan. Shu ma'noda o'zlashtirilgan bilimlarni, mahorat va ko'nikmalarni hamda kompetensiyalarni uyg'unlashtirishda mustaqil ta'lim amaliy vazifani bajaradi. Demak, mazkur me'yoriy asosga ko'ra, asosiy masala kasbiy mahorat va kompetensiyalarni birlashtirishdir. Shuningdek, bir qator me'yoriy hujjatlarda ham mustaqil ta'lim asoslari, talablari va qoidalari

belgilab qo'yilgan. Bunday me'yoriy hujjatlardan eng muhimlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagagi 577-son Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta va o'rtasus davlat ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmatning psixolog kadrlarini attestasiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2020-yil 15-maydagagi 287-son Qarori bilan tasdiqlangan "Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to'g'risida"gi Nizom hamda Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasidan iborat. Mazkur me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mamlakatimizning www.ziyonet.uz va www.google.uz axborot portallaridagi manbalardan foydalanish tavsiya etiladi. Chunki me'yoriy hujjatlarning yangi tahrirdagi variantlari aynan ana shu axborot portallarida berib borilishini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'limning muhim me'yoriy asoslaridan biri mamlakatimizda e'tirof etilgan xalqaro ta'lim dasturlaridir. Bunday ta'lim dasturlarining mamlakatimizda joriy etilayotgan asosiylarini TIMSS (Matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi), TALIS (o'qituvchilar faoliyati, ish sharoiti va maktabdagi ta'lim muhitini baholash xalqaro tadqiqot dasturi) va PISA (o'quvchilarning va umuman ta'lim oluvchilarning o'qib tushunish ko'nikmasini baholash xalqaro dasturi) tashkil qiladi. Mazkur xalqaro ta'lim dasturlarida asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning mustaqil harakat vositasida o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish qoidalari hamda talablarini belgilashga qaratilgan. Misol uchun, TALIS xalqaro ta'lim dasturida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyat asoslarini mustaqil ravishda o'zlashtirishi masalasi birlamchi omil sifatida belgilangan, shuningdek, ushbu dasturda o'qituvchilarning ish sharoiti va ta'lim muassasasining muhitiga mos ravishda mustaqil kasbiy faoliyat ko'rsatish qoidalari ham ta'kidlab o'tilgan. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur xalqaro ta'lim dasturlari bilan tanishishi va ulardagi talablar va qoidalarni o'zlashtirishi muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilarni yo'naltirish muhim o'rinn tutadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- a) mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini individual o'zlashtirish;
- b) mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini guruhli o'zlashtirish;
- v) mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini ustoz-shogird an'anasi vositasida o'zlashtirish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini individual o'zlashtirishda talabalar yakka tartibda faoliyat yuritadi. Bunda ularga me'yoriy hujjatlar va asoslar bo'yicha yo'naltirishlar beriladi. Bu manbalar va me'yorlarni qayerdan topish bo'yicha maslahatlar uyuشتiriladi. Ularni o'zlashtirish bo'yicha o'qish, konsept qilish va chizmalar tayyorlash bo'yicha ko'nikmalari shakllantiriladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi individual tarzda dars mashg'ulotlari va pedagogik amaliyotdan tashqari vaqtarda mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini kutilgan darajada o'zlashtiradi. Chunki individual o'zlashtirish jarayoni ta'lim oluvchiga erkinlik imkoniyatini taqdim qiladi. Misol uchun, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni individual o'zlashtirish muhim amaliy samarani beradi. Chunki bunda ta'lim oluvchi o'zi ko'nikkan vositalar asosida qonunni o'zlashtiradi. Bu borada kimdir yodlash, kimdir konsept qilish yoki kimdir chizmalarda aks ettirish kabi metodlardan foydalanadi. Bunday individual yondashuv mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini talab darajasida o'zlashtirish imkonini beradi.

Ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish me'yoriy asoslarini o'zlashtirishda ularning guruhlарini tashkil etish ham muhim ahamiyatga egadir. Unga ko'ra, talabalar 5-7 nafardan kichik guruhlarga bo'linadi va ular mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini birgalikda o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Bunday guruqli o'zlashtirishning amaliy samarasini shundaki, ta'lim oluvchilar bir-birlaridan tez va oson o'zlashtiradi. Chunki guruhdha o'zlashtirish bo'yicha tajribaga ega ta'lim oluvchining mavjudligi bu jarayonning samaradorligiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, guruqli o'zlashtirish jarayoni manbalar va ma'lumotlarni tezkor usulda topish imkonini ham beradi. Chunki guruh a'zolari bosma nashrlar, elektron resurs manbalar va qo'shimcha axborot vositalaridan kerakli ma'lumotlarni topish imkoniyatiga egadir. Shu ma'noda mustaqil

ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini guruhli shaklda o'zlashtirish uchun ta'limning barcha bosqichlarida bu faoliyatni yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud. O'quvchilar va talabalarning guruhli o'zlashtirish ko'nikmalarini tarkib toptirish va rivojlantirib borish ularning kasbiy faolligini shakllantirishda ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Guruhli o'zlashtirish jarayoniga mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslaridan yaxshi xabardor bo'lgan mutaxassis-pedagog yo'naltiruvchi shaxs sifatida biriktiriladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini Ustozshogird an'anasi vositasida ham o'zlashtirish amaliy samaradorlikka ega. Ungako'ra, oliv pedagogik ta'lim jarayonida talabalar biriktirilgan professor-o'qituvchilar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini o'zlashtirish jarayonini tashkil qiladi, bu keng imkoniyat bo'lib, biriktirilgan talabalarning miqdori ham imkoniyatlarga mosdir. Shuningdek, ta'lim bosqichlarida ham o'quvchilarni o'qituvchilarga biriktirib qo'yish tajribasini keng qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'qituvchilar tarkibi o'zlariga biriktirilgan o'quvchilar bilan istalgan bo'sh vaqtlarida shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Buning natijasida mustaqil ta'lim va uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tarkib topadi. Shu jihatdan oliv pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining Ustozshogird an'anasi bo'yicha ko'nikmalarini talab darajasida tarkib toptirish muhim amaliy ahamiyatga egadir.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'limni tashkil etishning me'yoriy asoslarini o'zlashtirish vositalari keng ko'lamlidir. Bu vositalardan ta'limning bosqichlariga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu masala bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tomonidan chuqur idrok etilishi muhim ahamiyatga egadir.

Diqqat qilinsa, mamlakatimiz va xalqaro miqyosda mustaqil ta'limning o'ziga xos me'yoriy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida ta'lim jarayoni yo'lga qo'yilgan.

Mustaqil ta'limning milliy pedagogik asosi. Mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha milliy pedagogik tajriba asoslari ham mavjud. Unga ko'ra, qadimgi davrlardan to XX asr dastlabki choragiga qadar boshlang'ich ta'lim asosan mustaqil ta'lim shaklida amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan, bunda boshlang'ich ta'limning naqadar nozik masala ekanligi nazarda tutilgan;

a) oila ta'limida maxsus tanlangan Ustoz bolalarning boshlang'ich ta'limini amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan (misol uchun, Amir Temurning boshlang'ich ta'lim ustozi Amir Sayfiddin, Mirzo Ulugbekning boshlang'ich ta'lim ustozi Burxoniddin Qilich yoki Bobur Mirzoning dastlabki boshlang'ich ta'lim ustozi Yusuf Andijoniy bo'lgan);

b) oilada amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan, bunda boshlang'ich ta'limning naqadar nozik masala ekanligi nazarda tutilgan;

v) o'rta asrlardan boshlab yirik Masjidlar huzurida boshlang'ich sinflar tashkil qilingan va ularda bolalar soni 15 nafarni tashkil etgan, bu sinflarda o'rta maxsus ma'lumotli mudarrislar saboq bergen va o'quvchilar boshlang'ich ta'limdan keyin o'qishni davom ettirish yoki ettirmaslikni individual tarzda tanlagan;

g) XX asrning boshlariga kelib jadid pedagoglari tomonidan maktablar tashkil qilinib, ularda asosan boshlang'ich ta'limni amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan, bu sinflarda diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lgan muallimlar saboq bergen (mamlakatimizda birinchi boshlang'ich jadid maktabi Abduqodir Shakuriy tomonidan 1901-yili Samarcand viloyatida tashkil etilgan, shu ma'noda joriy yilda zamonaviy va ilmiy asoslarga ega bo'lgan boshlang'ich ta'limimizga 124 yil to'lganligini eslatib o'tish joiz);

d) XX asrning 18-yilida birinchi O'zbekiston Maorif vaziri Abdurauf Fitrat tomonidan Yevropa tajribalariga mos boshlang'ich sinflar tashkil qilinib, ularda boshlang'ich ta'limni to'liq amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan va shu davrdan boshlab boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari tanlangan hamda bu ta'lim jarayonini ilmiy va dunyoviy ma'lumotga ega o'qituvchilar amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan;

e) keyingi yillarda mamlakatimizda boshlang'ich ta'limning davlat, nodavlat va xususiy shakllari tarkib topdi, ularda oliv ma'lumotli pedagoglar saboq bermoqda hamda o'qitish texnologiyalari muntazam takomillashtirib borilmoqda.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda amalgalashuviga yo'l qo'yilmagan mustaqil ta'limning mazkur milliy tajribasi amaliyotga yo'naltirilganligi va pedagogik qonuniyatlarga mosligi bilan diqqatni tortadi. Bunda ustoz, muallim, mudarris, o'qituvchi va pedagog kasblarinining tadrijiy rivojlanib kelganligiga e'tibor berish lozim. Boshlang'ich

ta'lim pedagogikasidagi mazkur milliy tajribani keng o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishning milliy pedagogik asoslarini bugungi kun talablari asosida yangidan tadqiq etish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Buning uchun bizningcha, quyidagi yo'nalishlarda ilmiy-metodik tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) Abu Ali Ibn Sinoning mustaqil ta'lim nazariyasiga doir qarashlarini tadqiq etish;
- 2) o'rta asrlarda faoliyat yuritgan boshlang'ich ta'limdagi mustaqil ta'lim tajribasini alohida tadqiq etish;
- 3) jadid pedagoglarining mustaqil ta'lim metodikasini tadqiq etish;
- 4) Konstantin Ushinskiy, Genrix Pistalosii va Jon Dyularning mustaqil ta'lim vositalariga doir pedagogik merosini tadqiq etish;
- 5) XX asrda mamlakatimizda pedagog olimlar tomonidan mustaqil ta'lim bo'yicha amalga oshirilgan yondashuvlarni maxsus tadqiq etish.

Mazkur yo'nalishlarda ilmiy, nazariy va metodik tadqiqotlar majmuuni yaratish, mustaqil ta'lim asoslari bo'yicha muhim manbalarga ega bo'lish imkonini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bu borada maxsus tadqiqot yo'nalishini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib turganligini esga olish joiz.

Mustaqil ta'limning xorijiy mamlakatlardan tajribasi asosi. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning yana bir muhim matnibasi bu xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan tajribadir. Shu jihatdan xorijiy mamlakatlarda boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni quyidagi shakllar asosida amalga oshirilayotganligini ta'kidlab o'tish joiz:

1. xususiy maktablar vositasida mustaqil ta'limni amalga oshirish;
2. tajribali pedagoglarning repetitorlik individual maktablari asosida mustaqil ta'limni amalga oshirish;
3. kollejlар va universitetlar huzurida tashkil etilgan boshlang'ich maktablar vositasida mustaqil ta'limni amalga oshirish;
4. maxsus fanlarga yo'naltirilgan kurslar vositasida mustaqil ta'limni amalga oshirish.

Bu shakllar tajribasi shuni ko'rsatadi, unda har bir o'quvchi

bilan individual mashg'ulot o'tkazishga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu sababli bu tajribalarni o'rganish va ulardan boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishda foydalanish imkoniyatlarni kengaytirishini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'limning xorijiy mamlakatlardan tajribasini o'rganish va o'zlashtirish bu boradagi metodik yondashuvlarni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan bunda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) Germaniyaning mustaqil maktablar tajribasini o'rganish va tadqiq etish;
- b) Buyuk Britaniyaning mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy ko'nikmalarini tarkib toptirish tajribasini o'rganish va tadqiq etish;
- c) Yaponiyaning mustaqil ta'lim vositasida o'quvchilarining texnik va texnologik ijodkorlik ko'nikmasini tarkib toptirish tajribasini o'rganish va tadqiq etish;
- d) Xitoyning mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy rivojlanтиrish tajribasini o'rganish va tadqiq etish;
- e) Singapurning mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini faoliyatga tayyorlash tajribasini o'rganish va tadqiq etish.

Mazkur tajribalarni o'rganish jarayonida ulardan foydalanish metodikasi va vositalarini ham o'zlashtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalari kengayadi va chuqurlashadi. Shu sababli bizning yondashuvimizga ko'ra, mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish, tarbiyalash va ularni faoliyatga tayyorlashning xorijiy tajribalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish manbalari o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Bunda asosiy e'tibor me'yoriy hujjatlar, milliy pedagogik tajribalar va xorijiy mamlakatlarning tajribalari muhim o'rinn tutadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur manbalarni chuqr o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1.3. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning ilmiy masalalari

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limning imkoniyatlaridan foydalangan holda o’zlashtirish jarayonini kuchaytirish va o‘quvchilarining faolligini ta’minlashga erishish bugungi kundagi muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma’noda boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning ilmiy masalalari to‘g‘risidagi tahlillarga bu o‘rinda e’tiboringizni tortamiz.

Mustaqil ta’lim nazariyası. Mustaqil ta’lim nazariyasiga ko‘ra, ta’lim oluvchilarining o‘z xohishi va harakatlari natijasida bilim va ko‘nikmalar o’zlashtiriladi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonlik ko‘nikmasini tarkib toptirish va ularni bilim hamda tarbiya olamiga olib kirishda qiziqishlari, xohish-istaklari hamda mustaqil harakatlariga tayaniladi. Bunda mustaqil ta’lim nazariyasida quyidagilarning muhim o‘rin tutishini ta’kidlab o‘tish lozim:

1. o‘quvchilarining vaqt rejimini to‘g‘ri taqsimlash;
2. o‘quvchilarining qiziqishlari asosida ularni bilim olishga yo‘naltirish;
3. o‘zlashtirish jarayonini bevosita o‘quvchilarining mustaqil harakatlari asosida tashkil qilish.

Mustaqil ta’lim nazariyasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vaqt rejimini to‘g‘ri taqsimlash muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimiz sharoitida bu masala bo‘yicha yakdil metodik xulosaga kelish dolzarb bo‘lib turibdi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoni ertalab yoki tushdan keyin amalga oshirilmoqda. Psixolog va tibbiyotchilarining umumiy fikricha, kunning dastlabki vaqtlarida ta’lim jarayonini tashkil qilish o‘quvchilarining fiziologik tuzilishiga mosdir va shu sababli kunning birinchi davridagi dars jarayonlarini o‘zlashtirish qulay kechadi. Kuning ikkinchi yarmida tashkil qilinadigan dars jarayonida o‘zlashtirish darajasining pastligi kuzatiladi. Chunki o‘quvchilarining fikrlash a‘zosi bo‘lgan miya kunning dastlabki birinchi yarmida to‘laqonli ishlaydi va turli ma‘lumotlarni qabul qilishi natijasida kunning ikkinchi yarmida o‘quvchilarda fiziologik toliqishni keltirib chiqaradi. Shu sababli kunning ikkinchi yarmida ta’lim oladigan boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarining mustaqil ta’limini kunning birinchi yarmida tashkil qilish nazariy jihatdan muhim ahamiyatga egadir. Chunki mustaqil ta’limda muayyan mavzular, ma‘lumotlar va matnlar o‘zlashtiriladi, bu bilim berish jarayoni bilan bog‘liqidir. Shu jihatdan kunning birinchi yarmida ta’lim oladigan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta’limini kunning ikkinchi yarmida tashkil qilish ham samara beradi. Biroq, kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladigan mustaqil ta’limda topshiriqlar majmui yengil bo‘lishi taqozo etiladi. Demak, mazkur metodika asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta’lim vaqt rejimini taqsimlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim nazariyasida o‘quvchilarining qiziqishlariga atosan ularni bilim olishga yo‘naltirish muhim masalalardan biridir. Bunga har bir o‘quvchining qiziqish ko‘lami aniqlanadi. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘quv fanlarining aniq, tabiiy va gumanitar turkumlarga bo‘lib o‘qitilayotganligi o‘quvchilarining qiziqishini tezkor aniqlash imkonini beradi. Shu sababli mazkur fanlar turkumi asosida o‘quvchilarining mustaqil ta’limini tashkil qilish nazariy jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Misol uchun, gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi o‘quvchilarining ijodkorlik ko‘nikmasini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim materiallarini taqdim etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu ma’noda aniq fanlar va tabiiy fanlar turkumiga kiruvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta’limida Respublika va xalqaro Fanlar olimpiadalari dasturlariga asoslanish muhim ahamiyatga egadir. Bu bilan ular qo‘srimcha bilim manbaini egallaydi va olimpiadalarda ishtirot etib o‘zlashtirganlarini sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Mustaqil ta’lim nazariyasining muhim masalalaridan biri ta’lim oluvchilarining o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilib borishdir. Unga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishi va ular tanlagan o‘quv fanlari jarayoniga tayangan holda o‘zlashtirish jarayoni o‘rganilib boriladi va baholanadi. Buning uchun o‘zlashtirish jarayonini qulaylashtirish, ularga qiziqarli bilimlar taqdim etish va ularni ma‘lumotlar tahliliga o‘rgatish vositasida o‘zlashtirishning ko‘rsatkichlarini yuksaltirib borish mumkin. Bunda diagnostik kuzatuv metodiga tayangan holda faoliyat olib boriladi. Mustaqil ta’limning asosiy va fundamental maqsadini o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini yuksaltirish hamda ularning tushunish

ko'nikmalarini tarkib toptirish tashkil qiladi. Shu sababli mustaqil ta'lif nazariyasi bilan shug'ullanigan xorijlik pedagog olimlar aynan o'zlashtirish ko'rsatkichlariga asosan mustaqil ta'limning samaradorligiga baho beradi. Demak, bunda bilimlar majmuini keng taqdim etish emas, balki aniq bilimlar majmuini o'zlashtirish masalasi muhim ahamiyatga egadir.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'lif nazariyasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining vaqt rejimini to'g'ri taqsimlash, ularning qiziqishi va layoqatlariga ko'ra bilimlar hamda ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek, ularning o'zlashtirishini baholab borish masalalari muhim o'rinni tutadi. Oliy pedagogik ta'lif jarayonida ularni o'zlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

Mustaqil ta'lif didaktikasi. Bugungi kuda mamlakatimizda mustaqil ta'lif didaktikasi takomillashish jarayonini boshdan kechirmoqda. Shu jihatdan bu boradagi quyidagi asosiy masalalarni eslatib o'tish joiz:

1) mustaqil ta'lifni o'quv fanlari vositasida tashkil qilish didaktikasi;

2) mustaqil ta'lifni o'quvchilar guruhi vositasida tashkil qilish didaktikasi;

3) mustaqil ta'lifni individual tarzda tashkil qilish didaktikasi.

Mustaqil ta'limning muhim didaktik masalalaridan biri uni o'quv fanlari vositasida tashkil qilishdir. Shu jihatdan bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lif jarayonida o'qitilayotgan o'quv fanlarining materiallarini va ma'lumotlarini to'g'ri hamda samarali o'zlashtirishga e'tibor berish bilan mustaqil ta'lif samaradorligiga erishish mumkin. Chunki boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quv fanlari vositasida o'quvchilarga bilimlar majmuini taqdim etishdir. Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z fani bo'yicha yangi matnlarni va ma'lumotlarni tanlash huquqiga ega. Aynan yangi matnlarni va ma'lumotlar asosida mustaqil ta'lifni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quv fanlaridagi taqdim etilgan materiallar va ma'lumotlar dars jarayonida o'zlashtiriladi. Yangi matn va ma'lumotlar esa mustaqil ta'limning muhim didaktik asosini tashkil qiladi.

Mustaqil ta'lif didaktikasida ta'lif jarayonini o'quvchilar guruhi vositasida tashkil qilish masalasi muhim o'rinni tutadi. Bu

borada ham bizning mustaqil ta'lifimizda imkoniyatlar mayjud. O'quv fanlari turkumlariga mansub o'quvchilar guruhining mustaqil ta'lifini tashkil qilish qiziqarli va o'zlashtirish jihatidan samarali hisoblanadi. Faqat bunda o'quvchilarda shakllantiriladigan ko'nikmalarini aniq belgilab olish kerak. Shu jihatdan aniq fanlar guruhiga mansub o'quvchilarda tahlil va mustaqil fikrlash, tabiiy fanlar guruhiga mansub o'quvchilarda ixtirochilik va kashfiyotchilik hamda gumanitar fanlar turkumiga mansub o'quvchilarda ijodkorlik va yangilikka intilish ko'nikmalarini tarkib toptirishning belgilab olinishi nazariy va metodik jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Bu bilan o'quvchilarning ta'kidlangan ko'nikmalarini yanada rivojlanadi. Chunki mustaqil ta'lif o'quvchilarning o'z harakatiga asoslanishi bilan ko'nikmalarning tez tarkib topishiga imkoniyat beradi.

Mustaqil ta'lif didaktikasining yana bir muhim masalasi o'quvchilarning individual tarzda bilim va ko'nikmalarini rivojlantrishdir. Unga ko'ra, har bir o'quvchining qiziqishi va qobiliyatiga tayangan holda qiziqarli ma'lumotlar, matnlar va turli murakkab topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Bunda o'quvchi foydali individual tarzda topshiriqlar va matnlarni o'zlashtirishi kerak. Unda paydo bo'ladigan savollar va murakkabliklar yechimi o'qituvchi tomonidan berib boriladi. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang'ich ta'lif jarayonida faol ishtiroy etayotgan tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining individual metodikalarini o'rganish dolzarob bo'lib turibdi. Bizning kuzatishimizga ko'ra, bunday metodikalardan har bir o'quvchi bilan individual ishlash shakllari mavjud. Ayniqa shorda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari e'tibor berish keng bo'lamli ravishda o'z ifodasini topgan. Shu sababli oliy pedagogik ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini haftalik pedagogik amaliyot davrida tajribali o'qituvchilarning individual metodikasini o'rganishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqil ta'lif didaktikasining fundament negizini o'quvchilarning individual shug'ullanishi tashkil etishini alohida ta'kidlab o'tish kerak.

Diqqat qilinsa, mustaqil ta'lif didaktikasida o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Shu sababli bu didaktik xususiyatlarni o'zlashtirish bo'lib boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil ta'lim metodologiyasi. Mustaqil ta'limni tashkil etishning ilmiy masalalarida uning metodologiyasini o'zlashtirish muhim o'rinni tutadi. Unga ko'ra, mustaqil ta'lim o'ziga xos individual metodikalar va texnologiyalar majmuiga asoslanadi. Shu ma'noda mustaqil ta'lim metodologiyasining muhim jihatlari quyidagilardan iborat:

1. o'quvchilarning bilim doirasini kengaytirish metodikasi;
2. o'quvchilarning tushunish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi;
3. o'quvchilarning faoliyatga tayyorlik malakasini rivojlantirish metodikasi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter, ta'lim plansheti va shaxsiy mobil aloqa vositasi orqali bilimlar majmuini o'zlashtirish imkoniyatiga ega. Shu sababli mazkur texnik vositalarga maxsus dastur asosida qo'shimcha bilimlar va ma'lumotlar majmuini kiritib borish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish doirasini kengaytiradi. Aks holda, ushbu texnik vositalardagi ma'lumotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini chalg'itadi. Shu jihatdan Respublika ta'lim markazi boshchiligidagi boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun qo'shimcha bilimlar va ma'lumotlar variantlarini yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bunday variantlar elektron resurs ta'minoti vositasida shakllantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda mustaqil ta'lim didaktikasida mazkur masala bo'yicha o'quv-amaliy ishlanmalarni ishlab chiqish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, bunday ishlanmani mustaqil ta'lim vositasida "Informatika va axborot texnologiyalari" o'quv fani asosida amaliyotga tadbiq etish kutilgan samarani beradi. Mazkur masalada ham ilmiy-metodik ishlanmalarga ehtiyoj mavjudligini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'lim metodologiyasida o'quvchilarning tushunish ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi ham muhim o'rinni tutadi. Unga ko'ra, tushunish-bu matnlar mazmunini va ma'lumotlar majmuini xotirada saqlab qolish hamda qayta ishlash jarayonidir. Shu sababli pedagogik psixologiya mutaxassislari o'quvchilarning sezgi, tasavvur va xotirasini aniq rivojlantirish vositasida ularda tushunish ko'nikmasini tarkib toptirish mumkinligini alohida ta'kidlab ko'rsatishadi. Demak, mustaqil ta'lim vositasida o'quvchilarning

sezgi, tasavvur va xotira ko'nikmalarini maqsadli rivojlantirishga o'tibor berish ularning tushunish malakasini tarkib toptirishga himmat qiladi. Misol uchun, o'quvchi matnni o'qiyotganida uning mazmunini bevosita tasavvur qilishi kerak. Yoki, matematik masalani yechayotganida nafaqat uning qoidasini, balki yechish usulini ham tasavvur vositasida aniqlab olishi kerak.

Mustaqil ta'lim metodologiyasida o'quvchilarni keyingi faoliyatga tayyorlash metodikasi muhim masalalardan biridir. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ta'limning keyingi bosqichi va turlariga bilim, ko'nikma hamda tarbiyaviy jihatdan tayyorlashda mustaqil ta'lim keng imkoniyatlarni beradi. Chunki mustaqil ta'lim bu borada aynan o'quvchilarning individual faoliyatiga tayanishi bilan bevosita amaliyotga bog'liqdir. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayoni oldida o'quvchilarni faoliyatga tayyorlash vazifasi dolzarb bo'lib turibdi. Bunda mustaqil ta'limning individuallik, faoliyot va harakatchanlik metodikalariga tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asosiy masala boshlang'ich sinf o'quvchilarini ruhlantirish, rag'batlantirish va to'g'ri yo'naltirishdadir. Bu motivatsiyani mustaqil ta'lim metodologiyasining faoliyatga tayyorlash metodikasi asoslarini tashkil qiladi. Mazkur masalalar oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'zlashtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diqqat qilinsa, mustaqil ta'limning metodologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga egadir.²

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning eng muhim ilmiy masalalarini mustaqil ta'lim nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi tashkil qiladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

1. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning ilmiy asoslar mazkur ta'lim turining nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasiga asoslanadi. Bu asoslar an'anaviy, onlayn kabi

² Жабборова О., Сапарбаева Д. Бошлангич таълимда мустақил таълимни таҳвил этиш методикаси. – Тошкент, 2023. 20-35 бетлар

ta'lim turlaridan farq qiladi va asosiy e'tiborni ta'lim oluvchilarining mustaqil o'zlashtirishiga qaratadi.

2. Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish mazmuni o'quv fanlari kesimi bilan bog'liq holda belgilanadi. Bunda asosiy e'tibor 2023-2024 o'quv yilidan amalga kiritilgan o'quvchilarining kollobaratsiya, kommunikativ, kreativ va kritisizm ko'nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

3. Boshlang'ich sinflarda boshlang'ich ta'limni tashkil qilish manbalarini me'yoriy hujjatlar, pedagogik meros va xorijiy mamlakatlarning boshlang'ich ta'lim bo'yicha tajribalari tashkil qiladi. Bu manbalarni o'rganishda asosiy e'tibor Pedagogikamiz tarixida mavjud bo'lgan individual o'qitish metodikasiga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

4. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning ilmiy masalalarida o'zlashtirish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish, taqdim etiladigan o'quv materiallarining ko'p variantli bo'lishi va o'zlashtirishni zamonaviy texnologiyalar asosida diagnostika qilib borish muhim o'rinni tutadi. Mazkur masalalar bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmaga ega bo'lishi ularning kasbiy kompetensiyasi ko'lamini kengaytiradi.

II BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHNING METODIK OMILLARI

2.1. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali metodlari

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida boshlang'ich ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va o'quvchilarining o'zlashtirish ko'nikmalarini bugungi kun talablari asosida tarkib etptirish vazifalari qo'yilgan. Bugungi kunda mazkur vazifalarning jrosi ta'minlanmoqda. Shu jihatdan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha samarali metodlariga oid malakalarini rivojlantirish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlari. Boshlang'ich ta'limda o'tgan asrning 30-yillaridan boshlab Yevropa o'qitish tizimiga xos bo'lgan mustaqil ta'limning an'anaviy metodlari amal qilib kelmoqda. Bunda *an'anaviy* tushunchasini tajriba va sinovdan o'tgan yondashuv yoki tizim sifatida tushunish lozim bo'ladi. Chunki ta'lim va tarbiya jarayonida tajribadan o'tgan har qanday tizim, shakl va vositalar an'ana tusini oladi, bunda ularning ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi muhim xususiyat hisoblanadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limning quyidagi metodlari ko'pchilikning e'tirofiga sazovor bo'lgan:

- a) Ustoz-shogird metodi;
- b) trening metodi;
- v) test metodi.

Ustoz-shogird metodiga ko'ra, talaba yoki talabalar guruhi Ustoz tomonidan berilgan topshiriqni bajarish maqsadida mustaqil ta'limni amalga oshiradi. Bunda ko'p hollarda o'quv fanlarining muayyan mayzularini chuquro'zlashtirish yoki ular bo'yicha kasbiy ko'nikmani egallashga asosiy e'tibor qaratiladi. Mazkur metod asosida mustaqil ta'lim oluvchilar muntazam ravishda ustoz tomonidan nazorat qilib boriladi. Agar ta'lim oluvchilarining o'zlashtirish jarayoni

to'g'ri yoki qoniqarli bo'lsa, ularga yangi topshiriqlar taqdim etiladi. Bordiyu ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim jarayonidagi o'zlashtirishi talab darajasida bo'lmasa, u holda Ustoz tomonidan maslahatlar yoki tushuntirishlar beriladi. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirish jarayoni kuchayadi. Bu metodning yana bir o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, Ustoz tegishli adabiyotlar ro'yhatini talabalarga muntazam taqdim etib boradi. Buning natijasida talabalarning vaqtı tejaladi. Ayni paytda, mazkur metod asosida har bir talaba mustaqil ravishda o'zini qiziqtirgan masalalarni o'zlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu metoddan Ustozning yordami ko'p bo'lganligi uchun keyingi paytlarda uni qo'llash cheklanmoqda, chunki mustaqil ta'lim ta'lim oluvchilarning shaxsiy xatti-harakatiga asoslanadi.

Mustaqil ta'limning an'anaviy metodlaridan biri treningdir. Bu metod o'tgan asrning 90-yillarida Yevropa mamlakatlari tarkib topgan bo'lib, u darhol dunyo mamlakatlari oliy ta'lim tizimida ham e'tirof etilgan. Bu metodga ko'ra, muayyan topshiriqning ijrosi bo'yicha talabalar guruhg'a bo'linib, maxsus o'quv materiallari tayyorlashadi va trening, ya'ni yozma bahsli shaklda o'quv materiallarini taqdim etadi. Treningda talabalar guruhining faoliyi seziladi. Chunki talabalar guruhi berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash uchun mustaqil ravishda tegishli adabiyotlar, ma'lumotlar va axborotlar bilan tanishadi. Aynan mana shunday tanishuv jarayonida talabalarda mustaqil o'qib-o'rganish ko'nikmasi tarkib topadi. Shu sababli talabalar guruhiga asoslangan bu metod bugungi kunda oliy ta'lim jarayonida keng qo'llaniladi. Bunda asosiy e'tibor talabalarning guruhli mustaqil ta'lim olishiga qaratiladi va talabalar guruhidagi faol shaxs o'zgalarga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mustaqil ta'limning trening metodi o'quv fanlarini o'zlashtirish jarayonida nihoyatda samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki bu metod talabalar guruhi vositasida ko'nikmalarni tarkib toptirish, bilmni chiqurlashtirish va ta'lim oluvchini faollashtirishga asoslanadi. Mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim jarayonida ham tajribali o'qituvchilar tomonidan mazkur metodning imkoniyatlaridan ogilona foydalanib kelinmoqda.

Mustaqil ta'limning test metodi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur metod o'tgan asrning 90-yillarida Yevropa va AQSH ta'lim

tizimida tajribadan o'tgan holda dunyo bo'ylab keng tarqaldi. Bu metodning mazmuniga ko'ra, har bir talabaga savolnomadan iborat testlar taqdim etiladi. Ta'lim oluvchi ana shu testlarning javobini to'g'ri topishi uchun mustaqil ravishda tegishli adabiyotlar bilan tanishadi. Zaruriy hollarda maslahatlar ham olishi mumkin. Ushbu metodning qulayligi shundaki, talabani aniq topshiriqqa javob topishi uchun yo'naltiradi. Misol uchun, Pedagogika fanidan uning nizariyasi, metodikasi va didaktikasi masalalariga doir majmui testlar to'plamini ishlab chiqish hamda ular vositasida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu metod asosida talabalarning mustaqil o'zlashtirish ko'rsatkichlari yoki bilim darajasini baholash mumkin. Ingliz pedagogi Tomas Kerd (XX asr) tomonidan ishlab chiqilgan "Ta'lim oluvchilarining shaxsini o'rganish" testi mashhur bo'lib, unda talabalarning mustaqil ta'lim olish layoqati, ruhiyati, imkoniyatlari va faoliyatini o'rganish o'z ifodasini topgan.³ Shu ma'noda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda bu kabi yo'naltiruvchi metodlardan foydalananish maqsadga muvofiq bo'ladi. Test metodi bugungi kunda butun ta'lim jarayonida dunyo ta'lim muassasalarida keng qo'llanilayotganligini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlari muhim xususiyatlarga egaligi bilan pedagogik jarayonda e'tirof etiladi. Bunday xususiyatlarning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- metodlarning tajribadan o'tganligi;
- metodlarning ta'lim jarayoniga ta'sir ko'rsatishi;
- metodlarning ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi.

Yugorida ta'kidlab o'tilgan mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlari eng avvalo tajribadan o'tganligi bilan ahamiyatga ega hisoblanadi. Unga ko'ra, an'anaviy metodlar vaqt mobaynida ijobjiy samaralarni o'zida to'plagani holda salbiy xususiyatlardan tahlil natijasida mustaqil bo'lib borgan. Bunda muayyan metod uzoq vaqt qo'llanishi davomida o'zining ijobjiy xususiyatlarni namoyon qilib boradi va nisbatan kam miqdorda an'anaviy metodlar sifatida e'tirof etiladi. Shuni eslatib o'tish joizki,

Бордовская Н., Реан А. Педагогика. – Санкт-Петербург: 2001.

mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlarini har qanday muhitda va har qanday sharoitda amaliyatga joriy etish imkoniyati mavjud bo'ladi. Misol uchun, yuqorida tahlil qilib o'tilgan Ustoz-shogird metodi ta'lim va sharoitidan qat'iy nazar hamisha o'zining samarasini berib kelayotganligini ta'kidlab o'tish lozim. Chunki bu an'anaviy metodning mazmuni oson: Ustoz-o'rgatadi, shogird o'rganadi. Shu jihatdan bu an'aviy metod mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim tayanchlaridan biri sifatida qabul qilinadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlari ta'lim jarayoniga ijobjiy ta'sir etishi bilan ham ahamiyatga ega. Bunda an'anaviy bilim berish, tarbiyalash va faoliyatga yo'naltirish vositalari orqali ta'lim jarayoni amalga oshiriladi. Buning natijasida mustaqil ta'limni tashkil etishning tajribadan o'tgan vositalariga tayanish tarkib topadi. Misol uchun, yuqorida tahlil qilib o'tilgan trening an'anaviy metodi mustaqil ta'lim jarayoniga ijobjiy va amaliy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ega. Chunki bu metod vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'zlarining bilimi, o'zlashtirish darajasi va ko'nikmalarini namoyon qiladi. Shu jihatdan trening an'anaviy metodi mustaqil ta'limning o'ziga xos amaliy ko'zgusidir. Bu an'anaviy metodning imkoniyatlaridan keng foydalanish kutilgan samarani beradi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlari ilmiy va amaliy pedagoglar jamoasi tomonidan e'tirof etilgan bo'ladi. Chunki bunday metodlar har qanday sharoitda kutilgan samarani berish xususiyatlariga ega bo'lganligi uchun va ulardan foydalanish qulayliklari mavjudligi xususiyatlari mazkur metodlarning yashovchan bo'lishiga asos hisoblanadi. Misol uchun, keyingi 20 yil davomida ta'lim tizimimizda yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, test an'anaviy metodidan oqilona foydalanilmoqda. Shu jihatdan mustaqil ta'limni tashkil etishning bu metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirish darajasini yaqqol namoyon qiluvchi va ularning bu ko'nikmasini rivojlanish tadbirlarini amalga oshirishda ma'lumotga ega bo'lish vositalaridan biridir. Test metodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha bilim darajasi, ko'nikma ko'rsatkichi va kasbiy tayyorgarlik malakasi o'rganilib baholanadi. Shu sababli mazkur an'anaviy metoddan oqilona foydalanish muhim

ahamiyatga egadir.

Umuman bizning yondashuvimizga ko'ra, mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlari vaqt sinovidan o'tganligi bilan ahamiyatga egadir. Bunday an'anaviy metodlardan umumjamoa bo'lib foydalanish imkoniyatlari bo'rtib turadi. Shu sababli har bir pedagog o'z faoliyatida ulardan oqilona foydalanishga intiladi. Ayni payda, mustaqil ta'limni tashkil etishning an'anaviy metodlarini judiy rivojlanТИRIB borish muhim ahamiyatga egadir.

B'lib berilsa, mustaqil ta'limning an'anaviy metodlari o'zining imkoniyatlari va cheklangan xususiyatlariga ega. Ta'lim sharoiti va muhitidan kelib chiqib ulardan kezi bilan foydalanish metodik shaxsida to'g'ri hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limning mazkur an'anaviy metodlarini o'zlashtirishi tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion metodlari. Bugungi kunda professor-o'qituvchilar tomonidan mustaqil ta'limning metodlari bo'yicha muayyan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Chunki jamiyatimizning innovatsion rivojlanish sharoitida mustaqil ta'lim jarayonini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirish dolzarb bo'lib turibdi. Shu jihatdan mustaqil ta'limni tashkil etishning bir necha innovatsion metodlari mavjud bo'lib, ularning asosiyлари quyidagilardan iborat:

- a) individual o'rganish metodi;
- b) kollekvium metodi;
- c) masofaviy ta'lim metodi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion metodlaridan biri ta'lim oluvchi o'z bilimini chuqurlashtirish, kasbiy ko'nikmasini hengaytirish yoki qiziqqan mavzulari bo'yicha ma'lumotlarni bish uchun individual tarzda o'rganish jarayonini amalga oshiradi. Aynan individual o'rganish metodi mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan biri hisoblanadi. Chunki bunda ta'lim oluvchi tegishli adabiyotlar bilan mustaqil tanishadi, ma'lumotlarni individual tarzda izlab topadi va ko'p hollarda ta'limning shaxsiy tajribasiga tayangan holda o'ziga xos izlanish jarayonini amalga oshiradi. Individual o'rganish metodi ta'lim

oluvchilarning bilimlarini chuqurlashtirgan holda, ularning kasbiy kompetensiyasi tabiiy ravishda rivojlanishi uchun omil hisoblanadi. Chunki individual o'rganish metodi ta'limga oluvchilarda o'rganish bo'yicha tajribani tarkib toptiradi va murakkab holatlarda ham o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni izlab topishga ko'niktiradi. Individual o'rganish metodi asosida mustaqil ta'limga amalga oshirish uchun internet jahon axborot tarmog'iadi ma'lumotlarni tahlil vositasida o'zlashtirish, mamlakatimizdagi ta'limga oid milliy portallar bilan tanishish kutilgan samarani beradi. Mazkur metodning ilk ko'rinishi talabalarning referat tayyorlash jarayonida namoyon bo'ladi. Shu sababli talabalarda individual o'rganish ko'nikmasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday ko'nikma kelgusida faoliyat davomida o'ziga xos tajribaga aylanadi. Agar ta'limga oluvchida individual mustaqil ta'limga olish ko'nikmasi tarkib topsa, uning kasbiy kompetensiyasi chuqurlashadi. Shu sababli asrimizning boshlaridan boshlab Yevropa mamlakatlari va AQSH oliv ta'limga tizimida individual o'rganish metodi keng qo'llanila boshladi. Bunda asosiy e'tibor mustaqil ta'limga talablaridan biri bo'lgan ta'limga oluvchining kasbiy faollashuviga qaratilmoqda. Mamlakatimiz oliv pedagogik ta'limga muassasalarida ham mazkur metod imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarning individual o'rganish ko'nikmasini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Individual o'rganishda ta'limga oluvchining tajribaga ega bo'lishi mayjudligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga aynan oliv pedagogik ta'limga muassasasida individual o'rganish ko'nikmasini o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Mustaqil ta'limga samarali metodlaridan biri bu – kollekviumdir. Unga ko'ra, har bir talaba o'quv fanlari yoki tanlov fanlarining mavzularini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishadi, ularni konsept qiladi va qo'shimcha adabiyotlardagi matnlar mazmunini o'zlashtiradi. Buning natijasida talaba o'zi o'zlashtirgan qo'shimcha adabiyotlar bo'yicha Ustozlar guruhi va talabalar ishtiropi guruvida taqdimot qiladi. Unda o'qigan va o'zlashtirgan kitoblarning mazmuni, ulardagagi yondashuvlar va metodik tavsiyalarni bayon qiladi. Buning natijasida talabada qo'shimcha bilim, ma'lumot yoki axborot majmui tarkib topganligi aniqlanadi. Kollekvium metodining eng muhim xususiyatlaridan biri

ta'limga oluvchilarni aynan tegishli o'quv adabiyotlari bilan chuqur tanishdirishdir. Shu sababli mazkur metod o'tgan asrning 80-yillardan boshlab mamlakatimizning oliv ta'limga muassasalarida qo'llanib kelinmoqda. Bunda Ustozlar tegishli adabiyotlar ro'yxatini taqdim etish imkoniyatlari ham mavjud. Bizning yondashuvimizga ko'ra, mazkur metodda bugungi kunda oliv pedagogik ta'limga jarayonida foydalanan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun talabalarga tegishli pedagogik adabiyotlar va qo'shimcha adabiyotlarni o'qishni topshirish hamda kollekvium shaklida ularning taqdimotini o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy bilim darajasi va ularning professional tayyorgarlik ko'lami kengayadi.

Keyingi paytlarda butun dunyoda, jumladan, mamlakatimizda pandemiya kabi ijtimoiy sharoitlar taqozosi bilan ta'limga berish va o'qishning o'ziga xos shakllari ishlab chiqilib amaliyatga tadbiq etilmoqda. Ana shunday yangi metodlardan biri masofaviy ta'limgadir. Mustaqil ta'limga tashkil etishning masofaviy ta'limga metodi mazmuniga ko'ra, ta'limga oluvchilar kompyuter dasturi yoki maxsus TV dasturi asosida tegishli adabiyotlarni o'qish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, axborotlarni olish ko'nikmasini egallash kabi faoliyatni amalga oshiradi. Mustaqil ta'limga masofaviy ta'limga metodi shunday imkoniyatga egaki, unda mamlakatimizning eng chekka hududlarida o'qituvchilik faoliyati bilan shug'ullanayotgan va sirtqi ta'limga shaklida o'qiyotgan shaxslarning mustaqil o'qib o'rganish ko'nikmalarini tarkib toptiradi. Masofaviy ta'limga metodi vaqt tejamkorligi, iqtisodiy qulayligi va ta'limga oluvchini mustaqil faoliyatga yo'naltirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda, mustaqil ta'limga tashkil etishning masofaviy ta'limga metodidan opilona foydalanan uchun pedagogik adabiyotlarning va qo'shimcha o'quv materiallarning elektron usullarini tayyorlash hamda ularni mintazam ravishda takomillashtirib borish taqozo etiladi. Chunki bugungi kunda bosma adabiyotlar bilan ta'minlash murakkabligicha qolmoqda. Shu sababli masofaviy ta'limga metoddan foydalangan holda ta'limga oluvchilarning kasbiy bilimlarini talab darajasida tarkib toptirish, ularning kasbiy malakalarini yuzaga keltirish va mustaqil faoliyat olib borish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb hujblanadi. Bundan tashqari, ta'limga oluvchilar o'zi qiziqqan bilim

sohalari bo'yicha ham masofaviy ta'lim vositasida mustaqil o'qib o'rganishlari mumkin. Shu jihatdan mazkur metodni amaliyotda qo'llash muhim ahamiyatga ega. Aslida bu metod o'tgan asrning 90-yillarida AQSHda yuzaga kelgan bo'lib, u asosda ta'lim oluvchilarga oliy ma'lumot berilgan. Bugungi kunda masofaviy ta'lim metodidan mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonida foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga mazkur metod asoslarini chuqur o'zlashtirish tavsiya etiladi. Negaki, jamiyatning innovatsion rivojlanish sharoitida bu kabi metodlarga ehtiyoj ortib boradi.

Boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion metodlarini o'zlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) oliy pedagogik ta'lim jarayonida Pedagogika va Informatika fanlarning mashg'ulotlarini birgalikda tashkil etish;

b) oliy pedagogik ta'lim jarayonida muntazam ravishda kitobxonlar konferensiylarini o'tkazib borish;

v) oliy pedagogik ta'lim jarayonida tajribali mutaxassislarining qo'shimcha mashg'ulotlarini tashkil qilish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion metodlarini o'rganishda Pedagogika va Informatika fanlarining birgalikdagi mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki Pedagogika fani innovatsion metodlarning asoslarini taqdim etsa, Informatika fani ana shu metodlarni axborot kommunikatsion vositalar asosida ishlab chiqishni amalga oshiradi. Shu jihatdan misol uchun, yuqorida tahlil qilib o'tilgan mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion individual o'rganish metodini o'zlashtirishda mazkur o'quv fanlarining qo'shma mashg'ulotlari muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik metodlarni Informatika o'quv fani asoslariga tayangan holda innovatsion metodlar sifatida qayta shakllantiradi. Natijada ularning kasbiy kompetensiyalari yanada kuchayadi. Shu sababli Pedagogika va Informatika fanlarining birgalikdagi mashg'ulotlarini har oyda bir marotaba tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'tgan asrning 90-yillarida o'ziga xos kitobxonlik konferensiylarini muntazam o'tkazib borish

an'anasi mavjud edi. Unda talabalar, professor-o'qituvchilar va jameatchilik vakillari o'zлari o'qigan kitoblar to'g'risida ma'lumot berib, ularning mazmunini so'zlab berishar edi. Buning natijasida kitobxonlik konferensiysi ishtirokchilarining kitob mutolaasi ko'nikmasi va kitobxonlik madaniyati kengayib borardi. Shu jihatdan kitobxonlik konferensiylarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida qayta tiklash va ularni muntazam o'tkazib borish mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion metodlarini o'zlashtirishda ham muhim amaliy imkoniyatlarni beradi. Misol uchun, yuqorida tahlil qilib o'tilgan kollekvium innovatsion metodini kitobxonlar konferensiysi vositasida o'zlashtirish muhim o'rinn tutadi. Chunki kitobxonlar konferensiysi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yangi nashr etilgan va eng mashhur kitoblar bo'yicha ma'lumotlari, xabardorlik darajasi, axborot ko'nikmasi va bilim manbalari yangilanib boradi. Shu sababli kitobxonlar konferensiysi vositasida mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion kollekvium metodini o'zlashtirish samarali kechadi. Hunda talabalarning ham kitobxonlik konferensiyasida faol ishtirok etishini ta'minlash ularning mazkur metod bo'yicha ko'nikmalarini kengaytiradi.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonining imkoniyatlari kengdir. Ana shunday imkoniyatlardan biri mamlakatimizdagи mashhur mutaxassislarining ishtirokida qo'shma mashg'ulotlar tashkil etishdir. Bunday mashg'ulotlardan talabalarning qiziqish va faoliy bilan ishtirok etishi kuzatiladi. Chunki mutaxassislar o'zlarining sohalari bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlar va ko'nikmalarini taqdim etadi. Shu jihatdan yuqorida tahlil qilib o'tilgan mustaqil ta'limni tashkil etishning innovatsion masofaviy ta'lim metodini o'zlashtirishda mutaxassislarining qo'shma mashg'ulotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mamlakatimiz ilmiy va o'quv muassasalarida masofaviy ta'lim bo'yicha yangi tajribalarga ega mutaxassislar guruhi tarkib topgan. Bunday imkoniyatlardan foydalangan holda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining masofaviy ta'lim metodini o'zlashtirishga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha kasbiy kompetensiyalari yanada kengayadi. Ularning kasbiy faoliyatga

tayyorgarlik darajasi kuchayadi.

Diqqat qilinsa, mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali metodlari o'ziga xos imkoniyatlarni beradi va ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini qoniqtiradi. Bunday metodlarni o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun zaruriyat hisoblanadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning o'quv-texnik metodlari. Mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish va ularning ko'lamini kengaytirib borish taqozo etilmoqda. Shu jihatdan mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy va muhim metodlaridan biri bu – o'quv-texnik metoddir. Mazkur metodlarning asosiyları quyidagilardan iborat:

- a) elektron mustaqil ta'lim metodi;
- b) tanishuv mustaqil ta'lim metodi;
- v) topshiriq mustaqil ta'lim metodi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim metodlaridan biri bu – elektron metoddir. Uning mazmuniga ko'ra, ta'lim oluvchilar maxsus dastur asosida kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish maqsadida xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan tegishli adabiyotlar bilan tanishadi va ular to'g'risida ma'lumot tayyorlashadi. Bugungi kunda mamlakatimizda Matematika o'quv fani bo'yicha jahon mamlakatlarda amal qilayotgan o'quv adabiyotlarining elektron nusxalari keng joriy etilmoqda. Buning natijasida ta'lim oluvchilarning mazkur fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarini xorijlik tengdoshlariga mos ravishda tarkib toptirishga erishilmoqda. Shu ma'noda mamlakatimizda tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha ham elektron adabiyotlar majmuuni ko'paytirish hamda ularni tayyorlashda xorijlik hamkasblarning tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida aniq va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim oluvchilarning elektron ta'lim vositasida mustaqil ta'lim olishini tashkil etishga erishiladi. Ayni paytda, kezi kelganda bir holni ta'kidlash lozim: mamlakatimizda Ona tili va adabiyoti fani bo'yicha o'quv adabiyotlarini tayyorlashning o'ziga xos milliy tajribasi bo'lib, u Turkiya, Germaniya, Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarning tajribali pedagog olimlari tomonidan e'tirof etilgan. Shu ma'noda bunday milliy tajribaga tayangan holda, gumanitar fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarining elektron nusxalarini tayyorlash va ular asosida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim

oliy jarayonini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mustaqil ta'limning elektron metodi tezkor, qulay va ta'lim oluvchilarni qo'shitish bilan muhim ahamiyatga ega. Bu metod asosida o'quv adabiyotlariga bo'lgan taqchillikni ham bartaraf etish mumkin. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha elektron metodi bilan qurollantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning zamonaviy o'quv-texnik metodlaridan biri bu – tanishuvdir. Mazkur metodga ko'ra, ta'lim oluvchilar har bir ta'lim muassasasining axborot resurs markazi bilan tanishishi va uning doimiy mijozи sifatida faoliyat yuritishi kerak. Yaponiya mamlakatining tajribasiga ko'ra, oshbu mamlakatning umumiyl o'rta, professional va oliy ta'lim muassasalari kutubxonalarini milliy kitob resurslaridan tashqari eng rivojlangan jahon davlatlari ta'lim muassasalarining axborot resurs markazlari bilan bog'langan. Buning natijasida ta'lim oluvchi har qanday turdag'i ta'lim muassasasining axborot resurs vositasida mustaqil o'qish, mustaqil ixtisoslikni egallash va kasbiy malakasini shirish mumkin. Chunki axborot resurs markazlarida manbalarning ko'pligi, zamonaviyligi va eng so'nggi ma'lumotlarning taqdim etishi mustaqil ta'lim olish jarayonini kuchaytiradi. Shu sababli mamlakatimizda ham ta'lim muassasalarining axborot resurs markazlarini manba jihatidan boyitish, ularni eng ilg'or jahon mamlakatlari axborot resurs markazlari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish va elektron adabiyotlarni ko'paytirish taqozo etiladi. Chunki mustaqil ta'limni tashkil etish eng avvalo axborot resurslarning boyligiga asoslanadi. Shu ma'noda ta'lim oluvchilar har bir ta'lim muassasasining axborot resurs markazi bilan tanishish natijasida aynan ular vositasida o'zlarining bilim, ko'nikma va malakalarini kuchaytiradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Yaponiya mamlakati ta'lim muassasalari har chorakda bir marotaba o'zlarining axborot resurs markazlari bilan ta'lim oluvchilarni tanishtiradi. Buning natijasida ta'lim muassasalari o'zlarining muntazam mustaqil ta'lim oluvchi shaxslariga ega bo'ladi. Aynan mustaqil ta'lim oluvchilarning misfiysi va sifatiga qarab axborot resurs markazlarining faoliyati baholanadi. Bunday tajribalarni o'zlashtirish bilan oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining

mustaqil ta'lim olish bo'yicha ko'nikmalarini kutilgan darajada shakllantirish imkoniyatiga ega bo'linadi. Talabalarning mustaqil ta'lim bo'yicha ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan ta'lim sifatini oshirish yuzasidan yangi yo'nalishga ega bo'lish mumkin.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim metodlaridan biri topshiriqdir. Unga ko'ra, muayyan o'quv fanlarining muammolarini bo'yicha ta'lim oluvchilariga topshiriqlar majmui taqdim etiladi. Ta'lim oluvchilar mazkur muammoning zaruriyati va uning yechimlari bo'yicha mustaqil ravishda izlanishlar olib boradi hamda taqdimot tayyorlashadi. Muammolar bo'yicha mustaqil izlanishlar olib borish ta'lim oluvchilarining tadqiqotchilik ko'nikmasini, mutolaa madaniyatini va tahlil malakasini rivojlantiradi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida duch kelinadigan muammolar yechimi bo'yicha turli variantlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, keyingi vaqtarda ta'lim oluvchilarida pedagogik konfliktlarning kuchayotganligi kuzatiladi.⁴ Pedagogik konfliktlar aynan ta'lim va tarbiyaning samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmui hisoblanadi. Shu ma'noda boshlang'ich sinflarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni bartaraf etish muammoasi bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilariga topshiriqlar majmuini taqdim qilish ularning bu borada mustaqil izlanishlar va tadqiqotlar olib borishga yo'naltiradi. Topshiriq metodining ahamiyati shundaki u ta'lim oluvchilarда mustaqil faoliyat ko'nikmasini ham tarkib toptiradi. Shu ma'noda mustaqil ta'limni tashkil etishning topshiriq metodi ta'lim oluvchilarда tahliliy yondashuv, ilmiy izlanish va muammolar yechimini topish kabi ko'nikmalarning yuzaga kelishi uchun omil vazifasini bajaradi. Mazkur metoddan Rossiya Federasiyasi ta'lim muassasalarida keng foydalilanayotganligini eslatib o'tish joiz. Bu davlatning tajribasiga ko'ra, ta'limni isloh qilish jarayonida ham ana shunday topshiriq metodidan oqilona foydalilanadi. Demak, mustaqil ta'limni tizimli tashkil etishda topshiriq metodining imkoniyatlardan foydalananish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu ma'noda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining mazkur

⁴ Umarova Z.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bar-taraf etish. – Toshkent, 2021

metod asoslarini chuqur o'zlashtirishi dolzarb bo'lib turibdi.

Dig'at qilinsa, mustaqil ta'limni tashkil etishning o'ziga xos samarali metodlari mavjud. Mazkur metodlar asoslarini o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy kompetensiyasini kuchaytiradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'quv fanlarining mustaqil ta'lim qismi bo'yicha tadbirlar jarayonini kuchaytirish taqozo etiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning o'quv-metodlarini o'zlashtirish ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini uchun muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan mazkur o'quv-texnik metodlarni o'zlashtirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter dasturlari bilan keng ko'lamli tanishtirish;
- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini elektron-resurs shabiyotlari bilan ishlash ko'nikmasini kengaytirish;
- v) bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining metodlar bo'yicha ishlannalarini amaliyotga joriy etish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning elektron mustaqil ta'lim o'quv-texnik metodini o'zlashtirishda kompyuter dasturlariga asoslanish nihoyatda keng imkoniyatlarni beradi. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini oliy pedagogik ta'lim jarayonida 2-3 kompyuter dasturlarini o'zlashtirmoqda. Biroq ular kompyuter dasturlarining keng ko'lamli turlari bilan tanishishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki har yili kompyuter dasturlarining takomillashib yangi shakldagi avlodlari iste'molga kirib kelmoqda. Bu jihatdan maxsus kompyuter dasturlari asosida elektron mustaqil ta'lim metodining asoslarini chuqur o'zlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining mahorat darajasini kengaytiradi. Duning natijasida ularning kompyuter dasturlari asosida mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha o'quv-texnik metodlari tarkib topadi. Kelingisida kompyuter dasturlariga asoslangan ta'lim jarayonining mal qilishi kutilmoqda. Shu ma'noda mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining elektron mustaqil ta'lim metodi yuzasidan ko'nikmalarini talab darajasida shakllantirish taqozo etiladi.


Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'limni

tashkil etishda o'quv-texnik metodlarni o'zlashtirishi jarayonida elektron-resurs adabiyotlari bilan ishlash ko'nikmasiga asoslanish ham kutilgan samrani beradi. Chunki elektron-resurs adabiyotlari kompyuter, o'quv-texnik kabi vositalarga asosan ishlab chiqilgan mashg'ulotlarning matnlari bo'lib, ular ko'p hollarda texnologik imkoniyatga ega bo'lган shahar joylardagi ta'lim muassasalarida amal qilmoqda. Shu ma'noda yuqorida tahlil qilib o'tilgan mustaqil ta'limni tashkil etishning tanishuv mustaqil ta'lim metodini o'zlashtirishda elektron-resurs adabiyotlarning imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun har bir oliy pedagogik ta'lim muassasasi muntazam ravishda o'z saytlari vositasida mavjud elektron resurs o'quv adabiyotlarini butun mamlakat ta'lim tizimi uchun taqdim etib borishi muhim ahamiyatga egadir. Bunda ayniqsa, ziyonet.uz axborot-o'quv portalini imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mazkur portal mamlakatimizning eng chekka hududlaridagi ta'lim muassasalarini ham qamrab olgan. Aynan mazkur axborot-o'quv portalida joylashtirilgan elektron resurs adabiyotlar majmui bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining joylarda turib ham mustaqil ta'limni tashkil etishning o'quv-texnik metodlarini o'zlashtirishda keng imkoniyatlarni beradi. Chunki boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha sirtqi ta'lim oluvchilar ham mavjudligini e'tibordan soqit qilib bo'lmaydi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning topshiriq mustaqil ta'lim metodini o'zlashtirish ham zaruriyatdir. Buning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim bo'yicha yaratgan ilmiy ishlanmalarini va loyihalarni amaliyotga joriy etib borish ham muhim vosita hisoblanadi. Chunki talabalar guruhi tomonidan shunday ishlanmalar va loyihalarni yaratish jarayoniga duch kelinadiki, ular arzonligi va qulayligi hamda ta'lim va tarbiya jarayonini kuchaytirishga xizmat qilishi bilan e'tiborni tortadi. Bunga IT park texnologiyalari markazlarida mavjud yoshlarning ilmiy ishlanmalarini, loyihalari va yaratmalarini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Shu jihatdan topshiriq shaklida oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ta'lim bo'yicha yaratgan ishlanmalarini keng ko'lma amaliyotga joriy etish ularning bu boradagi kasbiy faolligini yanada

kuchaytiradi. Mustaqil ta'limni tashkil etishning topshiriq o'quv-texnik metodini o'zlashtirishda ana shu vositaga tayanish amaliy imkoniyatlarni beradi. Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mustaqil ta'limning o'ziga xos metodlari bilan huqur qurollantirishni taqozo etadi.

Shunday qilib mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim bosqichining ifat ko'rsatkichlariga erishish mazkur ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan ham foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun tahlil qilib o'tilgan metodlarni o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tibor bering:



Rasm. Boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etishning samarali metodlari

2.2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasi

O'zbekistonning innovatsion taraqqiyoti sharoitida mamlakatimizda boshlang'ich ta'limga sifatiga erishishning yo'naliishlari va turlariga asoslanish muhimdir. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning metodik masalalari bo'yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy ishlanmalar yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni o'quv fanlari o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasi tahliliga tortamiz.

Gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi. Mamlakatimiz boshlang'ich ta'limi jarayonida o'quv fanlarini turkumlashtirib o'qitish amalga oshirilmoqda. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining San'at turkumiga kiruvchi Tasviriy san'at, Musiqa madaniyati, Konstitutsiya alifbosi, Ona tili, O'qish savodxonligi gumanitar o'quv fanlarini o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda quyidagi metodikaga asoslanish samarali hisoblanishini eslatib o'tish joiz:

I. Tasviriy san'at o'shquv fanini mustaqil ta'lim shaklida tashkil qilish o'quvchilarining ijodkorligini kuchaytiradi va ularda estetik ko'nikmani tarkib toptiradi;

II. Musiqa madaniyati o'quv fanini mustaqil ta'lim vositasida tashkil qilish o'quvchilarining kuyni his etish, qo'shiqlar mazmunini o'zlashtirish va cholg'u ijrochiligiga bo'lgan intilishlarini kuchaytirib, ularda mustaqil ko'nikmalarni shakkantiradi;

III. Konstitutsiya alifbosi bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil qilishda mazkur o'quv fani doirasida insholar, bayonlar yozishni yo'lga qo'yish o'quvchilarining huquqiy ongini tarkib toptirishda amaliy samarani beradi;

IV. Ona tili o'quv fani mustaqil ta'limi vositasida o'quvchilarining chiroli va ifodali yozish hamda so'z boyligini ko'paytirishga, bu masalalar bo'yicha individual ko'nikmani tarkib toptirishga erishiladi;

V. O'qish savodxonligi o'quv fanining mustaqil ta'limi vositasida o'quvchilarda tez va sifatli o'qish, og'zaki va yozma nutq hamda

fikrini mustaqil ifodalash ko'nikmalari tarkib toptiriladi.

Boshlang'ich sinflarda gumanitar fanlar bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasiga asosiy e'tiborni vqaratish kerak. Unday metodika asoslarini quyidagilar tashkil qiladi:

1) boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroli yozuv ko'nikmasini mustaqil ta'lim vositasida tarkib toptirish;

2) boshlang'ich sinflarda o'quvchilarining matnni o'qish va uni shunish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini mustaqil ta'lim vositasida tarkib toptirish;

3) boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasviriy san'at bo'yicha hayotatini mustaqil ta'lim asosida rivojlantirishga e'tibor berish;

4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining musiqa tanlash va tinglash madaniyatini dastlabki bosqichda mustaqil ta'lim vositasida shakllantirish;

5) boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sog'lomligini mustaqil ta'lim vositasida rivojlantirish;

6) boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual huquq va manfaatlarini mustaqil ta'lim vositasida tarkib toptirish;

7) boshlang'ich sinf o'quvchilarini gumanitar fanlar bo'yicha ta'limning keyingi bosqichi yoki turlariga tayyorlash.

Mazkur metodikaga asosan mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilari gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash kutilgan samarani beradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, gumanitar fanlarni mustaqil ta'lim vositasida o'qitish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini kuchaytirish masalalari bo'yicha yangicha yondashuvlarga asoslangan ilmiy-metodik tadqiqotlarni erishish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Bugungi kunda mamlakatimizning eng chekka hududlarida olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini kuchaytirish maqsadida masofaviy ta'lim texnologiyaliga asoslangan mustaqil ta'limni joriy etish masalasi ham ahamiyatga egadir. Bunda ayniqsa, masofaviy ta'lim texnologiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini gumanitar bo'yicha respublika va xorijiy fan olimpiadalariga mustaqil vositasida tayyorlash kutilgan samarani beradi. Chunki bunda pedagoglar va mutaxassislarining ishtiropi masofaviy ta'lim

texnologiyasiga asoslangan mustaqil ta'limning imkoniyatlarini kengaytiradi.

E'tibor berilsa, boshlang'ich ta'limda gumanitar o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish keng imkoniyatlarni beradi. Shu sababli tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarini bunday imkoniyatlardan foydalangan holda o'quvchilarning tabiiy layoqatini rivojlantirishga e'tibor qaratadi.

Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi. Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlarni o'qitishda dastlabki ma'lumotlarni berish, o'quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimlari majmuuni tarkib toptirish ishlari amalga oshiriladi. Shu jihatdan bunda quyidagi metodika asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quv laboratoriyalari tashkil qilish;
- 2) o'quvchilarning qiziqishiga ko'ra Tabiatshunoslik to'garaklarini tashkil qilish;
- 3) o'quvchilarning kuzatuv ishlarini tashkil qilish.

Tabiiy fanlar bo'yicha o'quv laboratoriyalarini tashkil qilish mustaqil ta'limni amalga oshirishning muhim asoslaridan biridir. Shu sababli "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturi"ga asosan 2022-2023 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizning barcha umumiyl o'rta ta'lim maktablarida maxsus laboratoriyalarni tashkil qilish amalga oshirilmoqda. Bunday laboratoriyalar asosan tabiiy fanlarni tajriba-sinov asosida o'qitish va o'quvchilarning tabiiy-ilmiy ko'nikmalarini amaliy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu jihatdan tashkil etilayotgan zamonaviy laboratoriyalar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha mustaqil ta'limini tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilar o'zlarini qiziqqan tabiiy yo'nalishlar bo'yicha turli tajribalarni o'tkazish, dastlabki bosqichda elementlarning xususiyatlari bilan tanishish va tabiiy hodisalar to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lismaga erishadi. Shu tariqa boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqish va layoqat rivojlantiriladi. Eslatib o'tish joizki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuter va ta'lim plansheti o'quv-texnikalari bilan kutilgan darajada ishlash ko'nikmasiga ega. Shu sababli laboratoriya ishlari kompyuterli dastur asosida

tashkil qilinishi va unda o'quvchilarning mustaqil ishlashi yo'lga qo'yilishi tabiiy fanlar bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil qilishning muhim omillaridan hisoblanadi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kompyuterli dastur vositasida laboratoriya tajribalarini o'tkazishga qiziqishadi va buning natijasida ularda tabiiy – ilmiy bilimlar hamda ko'nikmalar tarkib topadi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlari o'qituvchilarini laboratoriya mashg'ulotlari vositasida o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim tajribasida o'ziga xos Tabiatshunoslik to'garaklarini tashkil qilish va uning vositasida o'quvchilarini tabiat hamda uning hodisalarini bilan tanishtirish bo'yicha tajribasi mavjud. Keyingi paytlarda mazkur tajribaga O'lkashunoslik ham qo'shilayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarini istiqomat qiladigan hududlardagi tabiatni o'rganish va undagi tabiat hodisalarini kuzatishga o'rgatish mustaqil ta'limning muhim asoslaridan biridir. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini gerbariy tayyorlash, o'zlarini istiqomat qiladigan tuproq va o'simliklar tarkibini o'rganish, mavjud tabiat hodisalarini kundalik vositasida kuzatish, ekologik ko'nikmaga bo'lismi va mamlakatimizda yo'lga qo'yilgan "Yashil makon" umumharakatida qatnashishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiat va uning mazmuni to'g'risida bilim hamda ko'nikmalar majmui tarkib topadi. Eslatib o'tish joizki, mamlakatimizning tabiatini yodliy, voha va chalacho'l zonalariga bo'linadi. Mazkur hududlarda istiqomat qiladigan boshlang'ich sinf o'quvchilarini shu zonalarga bo'lgan tabiatni o'rganib, o'ziga xos bilimlarga ega bo'ladi va uning natijasida ularda O'lkashunoslik bo'yicha ham ko'nikmalar tarkib topadi. Bunga erishish uchun mustaqil ta'limni bevosita tabiat bag'rida tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning boshlang'ich sinf tabiiy fanlar o'qituvchilarini yuqori sinf o'quvchilarining yordamidan foydalaniishi va ularga boshlang'ich sinf o'quvchilarini biriktirib qo'yishi kutilgan samarani beradi. Bunday 6-sinfdan boshlab yuqori sinf o'quvchilarini fanlar turkumlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi va bunda tabiiy fanlar bo'yicha qiziqchi o'quvchilar guruhining ko'pligini eslatib o'tish joiz.

Yuqori sinf o'quvchilari o'zlariga biriktirilgan boshlang'ich sinf o'quvchisi bilan tabiat va uning hodisalarini o'rganish bo'yicha harakatlarni amalga oshiradi. Bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Tabiiy fanlar bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil qilishning muhim shakllaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatni kuzatishga yo'naltirishdir. Unga ko'ra, o'quvchilar maxsus kundalik vositasida tabiatda bo'layotgan kuzatishlar va holatlarni kunlik me'yorda qayd etib boradi. Kelgusi o'quv yilida yuritiladigan kundalik kuzatishlar bilan o'tgan yilgi kundalik kuzatishlarni qiyoslash natijasida tabiat va uning hodisalari hamda tabiiy boyliklar to'g'risida chuqurma'lumotlarga ega bo'linadi. Misol uchun, o'tgan asrning 90-yillariga qadar umumiy o'rta ta'lim maktablarida bunday kuzatuv mustaqil ta'limi keng amaliyotda edi va u asosda olingen ma'lumotlar har bir o'quv yilida qiyosiy o'rganilib, tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar to'g'risida bilim va ko'nikmalarga ega bo'linadi. Shu jihatdan bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki butun dunyoda suvni tejash va iqlim o'zgarishini yumshatish bo'yicha antik tadbirlar amalga oshirilmoqda. Demak, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'zları istiqomat qilayotgan hududdagi suv holati va iqlim o'zgarishi jarayonini kuzatib borishga yo'naltirish ularning tabiiy-ilmiy bilimlarini tarkib toptirishdagi muhim vositalardan biridir. Bunda mustaqil ta'lim o'quvchilarning bevosita o'zları tomonidan kuzatish jarayonini amalga oshirish omillarini beradi. Shu ma'noda bugungi kunda boshlang'ich sinf tabiiy fanlari o'qituvchilar oldida ana shunday dolzarb yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilarning kuzatish faoliyatini yo'liga qo'yish va uning natijasida o'quvchilarda tabiiy bilimlarni egallashning mustahkam imkoniyatlarga ega bo'lish vazifalari turganligini eslatib o'tish joiz.

Diqqat qilinsa, tabiiy bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil qilish va uni amalga oshirish shakllari turli-tumandir. Bu shakllar o'ziga xos metodik yondashuvlarni beradi va o'quvchilarning tabiiy-ilmiy bilim hamda ko'nikmalarini chuqurlashtirilgan tarzda tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Aniq fanlarni o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni tashkil qilish. Bugungi kunda mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq fanlarni o'qitish tajribasi bo'yicha xalqaro an'analar

o'zlashtirilganligini eslatib o'tish joiz. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan Matematika hamda Informatika va axborot texnologiyalari o'quv fanlarini mustaqil ta'lim shaklida tashkil etish bilan o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirish imkoniyatlari mavjud. Bunda quyidagi shakllarga tayaniш maqsadga muvofiq bo'lishini eslatib o'tish joiz:

- 1) o'quvchilarni Respublika va xorijiy olimpiada o'quv dasturlari asosida aniq fanlar bo'yicha mustaqil ta'limini tashkil qilish;
- 2) o'quvchilarni aniq fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan mustaqil ta'limini tashkil qilish;
- 3) o'quvchilarni aniq fanlar bo'yicha ilmiy tafakkurini rivojlanuvchi mustaqil ta'limni tashkil qilish.

Mamlakatimizda 2023-2024 o'quv yilidan boshlab Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tayanch muassasalar sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu ma'noda Prezident maktablari tajribasidan o'tgan o'quvchilarga Respublika va xalqaro fan olimpiadalarini bo'yicha dasturlar asosida o'qitish jarayoni tashkil qilinmoqda. Bunda Matematika hamda Informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha Respublika va xalqaro fan olimpiadalarini o'quv dasturlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'limni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ushbu fan olimpiadalarida ishtirok etib kelayotgan yuqori sinf o'quvchilariga boshlang'ich sinf o'quvchilarini biriktirib qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki yuqori sinf o'quvchisi mazkur fan olimpiadalarini dasturlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga hamda amaliy tajribaga ega hisoblanadi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchisida mavjud bo'lgan matematik va axborot-resurs hamda ular bilan ishslash layoqati tez rivojlanadi, uning mazkur fanlar bo'yicha bilim ko'lami kengayadi. Mazkur jarayonda o'qituvchi yo'naltirish va kuzatib borish vazifasini bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi yuqori sinf o'quvchisi bilan ishdash jarayonida erkin harakat qiladi va unda qiziqish kuchayadi. Bu mustaqil ta'limning muhim amaliy vositalardan biridir. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida aniq fanlar bo'yicha iqtidorli va olarga oid fan olimpidalarida faol ishtirok etuvchi o'quvchilar pehilikni tashkil qiladi. Bunday imkoniyatdan foydalangan holda

boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq fanlar bo'yicha mustaqil ta'lmini tashkil qilish kutilgan samarani beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktabalarining har birida chuqurlashtirilgan mashg'ulotlarni amalga oshirish sinflari faoliyat yuritmoqda. Bunday sinflar aniq fanlar bo'yicha keng faoliyat yuritayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda aniq fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan sinflar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lmini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilariga darsliklardan tashqari bo'lgan mashqlar, masalalar va topshiriqlarni bajarish hamda ular bo'yicha bilimlarni egallash ishlarni tashkil qilish muhimdir. Shu ma'noda bugungi kunda misol uchun, "Qiziqarli matematika" chuqurlashtirilgan sinfini tashkil qilish yoki "Axborot olimi" chuqurlashtirilgan sinfini tashkil etish yubilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkoniyatlari mavjudligini eslatib o'tish kerak. Bunda o'quvchilar qo'shimcha ma'lumotlar, bilimlar hamda ko'nikmalarini mustaqil ravishda kitoblardan, axborotlardan va ma'lumotlar majmualardan o'zlashtirishga yo'naltiriladi. O'qituvchi bunday o'zlashtirish jarayonini tahlil qilib boradi va o'quvchilarining mustaqil o'zlashtirgan bilim hamda ko'nikmalarini baholaydi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim vositasida aniq fanlar bo'yicha chuqurlashtirilgan ko'nikmalarini tarkib toptirish imkoniyatlari kengayadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq fanlar bo'yicha ilmiy tafakkurini maqsadli shakllantirish mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan biridir. Unga ko'ra, "Matematika" xalqaro jurnali va "Informatika" xalqaro byulletenlarida e'lon qilib borilayotgan yangi matematik va algoritmik masalalarni yechishga boshlang'ich sinf o'quvchilarini yo'naltirish muhim imkoniyatlardan biridir. Chunki bu xalqaro jurnallarda har oyda bir marotaba ta'lim oluvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lgan muammoli masalalar va mashqlar berib boriladi. Pedagogik tajriba shuni ko'rsatadiki, o'tgan asrning 80-yillarida tajribali matematika o'qituvchisi matematik layoqatiga ega bo'lgan o'quvchini ana shu jurnallarda e'lon qilib borilayotgan va hali yechimi topilmagan masalalar bilan ishlashga yo'naltiradi.

Natijada o'quvchi mazkur jurnallarda e'lon qilib borilayotgan ammmo va mashqlarni 5 yil davomida muntazam yechib boradi, eng yechilgan variantlari muntazam ravishda ushbu jurnallar tarixiyatiga yuborib turiladi. Oradan 5 yil o'tib mazkur jurnallar tahririkeyingi 5 yil ichida namoyon bo'lgan 5 nafar matematik layoqatli o'quvchining ro'yhaktini e'lon qiladi va unda ushbu o'quvchi ham mamlakatimiz tarixida birinchi marotaba Matematika sinfi bo'yicha eng nufuzli mukofotga sazovor bo'ladi. Bu tajriba shuni ko'rsatadiki, ana shunday xalqaro miqyosdagi jurnallar va axborot vositalarida e'lon qilinayotgan mashqlar va masalalarni yechishga o'rgatish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy tafakkurini kutilgan darajada tarkib toptirish hamda rivojlantirishga qolish mumkin. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchisida tezkor va muohadali fikrlash quvvati mavjudligi ma'lum. Muso al-Xorazmiy yoshida, Albert Eynshteyn 11 yoshida o'z davridagi muammoli matematik masalaning yechimini topganligi ma'lum. Shu ma'noda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy tafakkurini qiziqarli va muammoli mashqlar vositasida tarkib toptirishda mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini shakllantirishning bunday imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lmini o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasi o'ziga xos imkoniyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Bunda qulay va samarali bo'lgan gumanitar, tabiiy va aniq fanlar turkumlari vositasida mustaqil ta'limning turli shakllaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Mazkur masalalar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini monidan o'zlashtirilishi taqozo etiladi.

2.3. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lmini to'garak mashg'ulotlari vositasida tashkil qilish metodikasi

Boshlang'ich ta'limda innovatsion rivojlanishni ta'minlash bu-jungikundagi muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi PQ-128 son "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'limgizning tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori va Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdag'i 157-ton "Davlat ta'limgizning standartlari va davlat ta'limgizning yangi davlat ta'limgizning standartlari va davlat talablari ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan boshlang'ich ta'limgizning yangi davlat ta'limgizning standartlari va davlat talablari ishlab chiqilmoqda. Bunda mustaqil ta'limgiz bo'yicha ham ta'limgizning standartlari va talablarining belgilanishi amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limgizni to'garak mashg'ulotlari vositasida tashkil etish metodikasini tahlil qilish mazkur ishlab chiqilayotgan yangi davlat ta'limgizning standartlari va davlat talablari mazmuniga mos keladi. Ushbu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

O'quv fanlari bo'yicha to'garaklar tashkil qilish vositasida mustaqil ta'limgizni yo'lga qo'yish. Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'limgizning standartlari aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlari bo'yicha to'garaklar an'anaviy tarzda tashkil qilingan. Ammo mazkur to'garakalarни quyidagilarga asosan tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) o'quv fanlari bo'yicha tashkil qilingan to'garaklarning mashg'ulotlari mustaqil ta'limgiz shaklida amalga oshirish;
- 2) mustaqil ta'limgizning shakllarini to'g'ri tanlash va joriy etish;
- 3) mustaqil ta'limgiz vositasida o'zlashtirish jarayonini aniq baholash.

Boshlang'ich ta'limgizning aniq, tabiiy va gumanitar o'quv fanlari bo'yicha tashkil etilgan to'garaklar mashg'ulotlari mustaqil ta'limgiz vositasida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda maxsus dastur tuzilib, unda mustaqil mashg'ulotlarning mavzulari, topshiriqlari va o'zlashtirilishi lozim bo'lgan ko'nikmalarni belgilab qo'yish muhim ahamiyatga egadir. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining to'garaklardagi faoliyati va o'zlashtirish jarayoni kuchayadi. Misol uchun, aniq fanlar to'garaklarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mukstaql fikrlash, tabiiy fanlar to'garaklarida ilmiy fikrlash va gumanitar fanlar to'garaklarida esa ijodiy fikrlash ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan

mashg'ulotlarni nazarda tutish muhimdir. Shu tariqa mustaqil ta'limgizning standartlari to'garaklarning mashg'ulotlari jarayoni yangilanadi va takomillashtiriladi. Eng asosiysi boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil harakat asosida berilgan topshiriqlarni bajarishga e'tibor berish kutilgan samarani beradi. Shu sababli bunda o'quvchilarining mustaqil harakatini tarkib toptirish va ularni yo'naltirib turish muhimdir. Tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilar aynan to'garaklar mashg'ulotlarini ana shu tarzda tashkil qilishga e'tibor qaratishini etabib o'tish joiz.

To'garaklar mashg'ulotlarida mustaqil ta'limgiz shakllarini tanlash ham muhim o'rinni tutadi. Bunda qo'shimcha adabiyotlarni o'qish, mavzular materiallarini kengaytiruvchi ma'lumotlar bilan takomillashtirish va o'quvchilarining ijodiy ishlanmalarini yo'lga qo'yish kutilgan samarani byeradi. Shu jihatdan o'quv fanlari to'garaklar mashg'ulotlarida faqat o'quvchilarini mustaqil faoliyatga o'qitiradigan metodikalarga tayanish muhimdir. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirishda bayon va insholarning o'rni muhim ahamiyat ga ega. Shu ma'noda bunday imkoniyatlardan mustaqil ta'limgiz jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bayon yoki insho yozish jarayonida o'quvchi fikrlaydi, o'z fikrini ifodalash ko'nikmasiga bo'ladi va bajargan ishidan qoniqish hosil qiladi. Aynan mana bunday ko'nikmalar mustaqil ta'limgiz vositasida shakllantiriladigan jarayondir. Shu sababli o'quv fanlarining to'garaklarini mashg'ulotlarini tashkil qilishda mustaqil ta'limgizning turli shakllariga tayanish metodik jihatdan samraralı hisoblanadi.

Mustaqil ta'limgizning muhim asoslaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish jarayonini aniqlashdir. Unga ko'ra, maxsus testlar yoki yozma ishlar vositasida o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi aniqlanadi va baholanadi. Shuning uchun testlarning ko'p variantli bo'lishi va yozma ishlar mavzularining mustaqil yozishga mo'ljallanganligi muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlash va baholashda o'zga o'qituvchilar yoki mutaxassislar guruhidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bunday o'qituvchilar va mutaxassislar har bir o'quvchining o'zlashtirish ko'rsatkichini xolis baholash

imkoniyatiga egaligi bilan diqqatni tortadi. Mustaqil ta'limning asosiy masalalaridan biri o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini xolis baholashdir. Shu sababli mazkur masala bo'yicha oliv pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik qurollanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'lim vositasida o'quv fanlarining to'garaklari mashg'ulotlarini yangilash va takomillashtirish hamda o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini kengaytirish imkoniyatlari mavjud.

Individual to'garaklar vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim vqa tarbiya jarayoni amalga oshirilmoxda. Shu jihatdan individual ta'lim vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish samarali hisoblanadi. Bunda quyidagi metodikaga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishini aniqlash;
- 2) o'quvchilarini qiziqishi asosida guruhlashtirish;
- 3) har bir guruh bo'yicha individual to'garaklar tashkil qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlarga bo'lgan qiziqishi va layoqatini aniqlab olish muhim masalalardan biridir. Bunda yozma ish, suhbat yoki savol-javoblar vositasida ularning qiziqishlari, intilishlari hamda layoqat ko'lami aniqlanadi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida 2-sinfdan boshlab qiziqish ko'lami muqimlashadi. Shu sababli ularning qiziqish va layoqatlarini aniqlashda 2-sinfdan boshlab tadbirlarni amalga oshirish va bunday tadbirlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining guruh bo'lib ishtirok etishi hamda tajribali psixolog yordamidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisida qiziqish ko'lami o'zgaruvchan bo'lishini hisobga olish lozim. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqish va layoqatini aniqlashda oila muhitini o'rganish ham kutilgan samarani beradi. Chunki oilaning yoki oiladagi muayyan shaxsning o'quvchiga nisbatan ta'siri ustuvor bo'ladi. Bularning barchasini asosida boshlang'ich sinf o'quvchisining qiziqish va layoqatini aniqlanib, shunga asosan mustaqil ta'lim to'garaklarini tashkil qilish yo'nalishlari belgilab olinadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari aniqlangach, ular

o'quv fanlari kesimi bo'yicha guruhlarga bo'linadi. Guruhlarga bo'lishda o'quvchilarining layoqatlik darajasiga ahamiyat berish kerak. Ko'pchilik boshlang'ich sinf o'quvchilarida layoqatlik darjasini shakllanish bosqichida ekanligini hisobga olish lozim. Aynan layoqatlik darajasiga asoslanish o'quvchilarini to'garaklar guruhiga bo'lishda tayanch vazifasini bajarishi kerak. Shunda individual mustaqil ta'lim to'garagi kutilgan samarani beradi. Eslatib o'tish joizki, o'quvchilar guruhida bir-biridan o'rganish jarayoni mavjud bo'ladi. Buning natijasida ularda keng ma'lumotga bo'lish va ularni o'zlashtirish jarayoni yuzaga keladi. Aynan shu holat individual to'garaklar uchun asos bo'ladi. Bunda har bir o'quvchining topshiriqlarni mustaqil bajarishi va guruh bo'lib bajarishi vositalariga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu noda individual to'garaklar o'quvchilarda shaxsiy va guruhli ko'nikmalarni tarkib toptirishga yo'naltirilishi kerak. Bu masala mustaqil ta'limning o'ziga xos asoslaridan biridir.

O'quvchilar guruhi bo'yicha individual to'garaklarni tashkil qilishda yangi va qo'shimcha ma'lumotlar berishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu hol to'garaklarning qiziqrarli va samarali bo'lishi ta'minlaydi. Shuni eslatib o'tish lozimki, individual to'garaklar har bir o'quvchining mustaqil rivojlanishini, o'zlashtirish ko'rsatkichlarini takomillashtirishni va o'zlashtirganlarni tushunishini amalga oshirish kerak. Mustaqil ta'limning individual to'garaklarni nisbatan asosiy talablaridan biri har bir o'quvchi bilan alohida ishslashdan iborat. Demak shunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, maktab psixologi va taklif madigan mutaxassislarining guruh bo'lib ishslashiga ehtiyoj mavjud. Rahbari tomonidan individual to'garaklar mashg'ulotlari muvofiqlashtirib boriladi. Buning natijasida har bir o'quvchida mustaqil o'zlashtirish, mustaqil izlanish va narsalar, buyumlar jihozlarni mustaqil yasash ko'nikmalarini tarkib topadi. Shu sababli mustaqil ta'lim metodikasida individual to'garaklar imkoniyatlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Diqqat qilinsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining individual to'garaklarini tashkil qilish vositasida mustaqil ta'limni amalga oshirish samarali hisoblanadi. Chunki bunday to'garaklar har bir o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasini

bajaradi.

O'qituvchilarining to'garaklarini tashkil qilish vositasida mustaqil ta'limni yo'lga qo'yish. Bugungi kunda mamlakatimizda tajribali boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z to'garaklari mavjudligini eslatib o'tish joiz. Buning uchun quyidagi larda tayanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- 1) har bir fan o'qituvchisining to'garagini tashkil qilish;
- 2) to'garaklar mashg'ulotlarini o'qituvchilarining vaqt rejimi asosida amalga oshirish;
- 3) mashg'ulotlarda asosiy e'tiborni o'quvchilarining mustaqil o'zlashtirishiga qaratish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har biri individual to'garaklarga ega bo'lishini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'qituvchilar o'z to'garaklarida qiziqarli mashg'ulotlar, yangi ma'lumotlar va o'z tajribasidan kelib chiqib tarbiya ishlarni amalga oshiradi. Bunda o'qituvchilarining to'garaklari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini tashkil qilish mustaqil ta'lim metodikasining vositalaridan hisoblanadi. Chunki har bir o'qituvchi o'z to'garagining ommaviy bo'lishini istaydi va natijada o'quvchilarining bilim ko'rsatkichlarida rivojlanish boshlanadi. Shu sababli bu jarayonda sinf rahbarlarining faol bo'lishi taqozo etiladi. Individual to'garagi samarali bo'lgan o'qituvchilarni rahbatlantirib borishga ham ahamiyat berish kerak. Misol uchun, keyingi paytlarda tadbirkorlarning muayyan maktablarda tabdirlarni amalga oshirish tajribasi shakllandi va bunda tadbirkorlar yillik daromad solig'idan ozod qilinadi. Shu ma'noda o'qituvchilarining to'garaklarni tashkil qilishda ana shunday tadbirkorlar bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir. Bunda tadbirkorlar ko'magidan to'garaklar uchun kerakli jihozlar, buyumlar va narsa yasovchi ashyolarni taqdim etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shu ma'noda o'qituvchilarining individual to'garaklarni tashkil qilish bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim olish jarayonini kuchaytirishga erishiladi.

O'qituvchilarining to'garaklari mashg'ulotlari o'quvchilarining vaqt rejimi asosida amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi. Bunda o'quvchilarining kunning qaysi qismida o'qishiga e'tibor berish va ularning imkoniyatlarni hisobga olish muhimdir. O'quvchilarining vaqt rejimlarini to'g'ri aniqlash mustaqil ta'lim

metodikasining muhim vositalaridan biridir. Shu sababli bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining va muktab psixologining hamkorlik asosida faoliyat yuritishi muhim o'rinn tutadi. Shuni hisobga olish lozimki, o'qituvchilarining individual to'garaklari mashg'ulotlari o'quvchilar uchun qo'shimecha yubklama vazifasini hajarmasligi kerak. Aksincha, bunday mashg'ulotlar o'quvchilarining o'zlashtirish jarayonini kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Misol uchun, o'zlashtirishda murakkablikka duch kelayotgan o'quvchilar o'qituvchilarining individual to'garaklarida o'zlashtirish imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bunda tajribali o'qituvchilarining metodollaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchilarining individual to'garaklarida asosiy e'tibor har bir o'quvchining individual o'zlashtirishi jarayoniga qaratilishi kerak. Bunda quyidagicha yo'l tutish maqsadga muvofiq bo'ladi: mustaqil topshiriqlar vositasida o'quvchi qiynalayotgan mavzuni o'zlashtirishga ahamiyat berish va o'zlashtirigan o'quvchilarining imkoniyatlari rivojlantirish. Aynan mana shunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining teng o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi. Demak, bunda har bir o'qituvchi o'z to'garagi vositasida o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini rivojlantirishni nazarda tutishi kerak. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlari kesimida o'zlashtirish jarayoni kuchayadi. Shu sababli bu jarayonda yosh o'qituvchilarining ham ishtiroy etishi maqsadga muvofiq bo'ladli. Umuman tajribali o'qituvchilarining individual to'garaklarni o'rganish va ommalashtirish dolzarb bo'lib surʼanligini eslatib o'tish joiz.

E'tibor berilsa, o'qituvchilarining individual to'garaklari mustaqil ta'limning muhim shakllaridan biridir. Shu sababli mazkur masalani shuqur o'zlashtirish taqozo etiladi.⁵

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni to'garaklar mashg'ulotlari vositasida tashkil qilish metodikasi keng imkoniyatlarga egadir. Bunda o'quvchilarining qiziqishlari, individual ususiyatlari va o'qituvchilarining to'garaklari vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish kutilgan samarani beradi.

⁵Jabborova O., Saparbayeva D. Boshlang'ich ta'limda mustaqil ta'limni tashkil metodikasi. – Chirchiq, 2023. 20-37 betlar.

2.4. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni individual yondashuv asosida tashkil qilish metodikasi

O‘zbekistonda boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga asosan “Ahолига мөс ва ҳалқаро та’лим дастурлари табобатларига хос бoshlang‘ich ta’limni tashkil qilish” vazifalariga asoslangan. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning turli innovatsion shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday shakllar aholi ehtiyojini ro‘yobga chiqarish va boshlang‘ich ta’lim jarayonini xalqaro ta’lim dasturlari tabobatlariga moslashtirish ishini tarkib toptiradi. Bu o‘rinda e’tiboringizni boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni individual yondashuv asosida tashkil qilish metodikasi tahliliga tortamiz.

Individual yondashuv metodikasi xususiyatlari. “Individual” atamasi lotincha bo‘lib, xususiy, alohida va yakka tartibda yondashuv ma’nolarini anglatadi.⁶ Shu jihatdan boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni individual yondashuv asosida tashkil qilish xususiyatlari quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

- 1) imkon qadar o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- 2) o‘quvchilarining individual ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish;
- 3) o‘quvchilarining o‘zlashtirish jarayonida umumiy ko‘rsatkichlarga erishish.

Individual yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan imkon qadar yakka tartibda ishlash asosida mustaqil ta’limni tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Bu masala murakkab bo‘lib, uning metodik asosini ishlab chiqish taqozo etiladi. Shu ma’noda o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash jarayonini tashkil qilishda o‘quvchilarining vaqt imkoniyatlari va ularning qiziqish yo‘nalishlari aniqlanib, mustaqil ta’lim tashkil qilinadi. Buning uchun har bir o‘quv fani o‘quvchisi mazkur fan guruhibiga mansub o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlash asosini tashkil qilishi kerak. Mana shu jihat bilan yakka tartibda ishlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilar faoliyatida keng ko‘lamlilikni keltirib chiqaradi. Bunda o‘qituvchi uchun eng

muhim imkoniyatlardan biri fanlar turkumlari bo‘yicha boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini yuqori sinf o‘quvchilariga biriktirib qo‘yishdan iborat. Yuqori sinf o‘quvchilari yakka tartibda boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan ishlaydi va o‘qituvchining yordamchisi sifatida nomonidan belgilangan vazifalarni bajaradi. Buning natijasida bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisi bilan yakka tartibda ishlash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Bundan tashqari, mustaqil ta’limni yakka tartibda tashkil qilish jarayonida o‘quvchilar uchun o‘quv shakllarining oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Mustaqil ta’limning maqsadi qo‘srimcha ma’lumotlar berish, aksincha, o‘quvchi uchun o‘quv materiallari yukini ko‘paytirishdan iborat. Shu ma’noda yakka tartibda o‘quvchilar bilan ishlash aniq va belgilangan mavzular doirasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mustaqil ta’limni individual asosda tashkil qilishning tayanchidan biri o‘quvchilarining ehtiyojini ro‘yobga chiqarishdir. Bunda o‘quvchilar o‘z bilimlarini kengaytirish, muayyan muammolarni etish, tushunmaganlarini o‘zlashtirish, ma’lumotlar topishdagi murakkablik, muayyan mavzularni o‘zlashtira olmaslik kabi ehtiyojlar mavjud bo‘lishini eslatib o‘tish joiz. Ana shu ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishda o‘quvchilar bilan individual ishlash hamda mustaqil ta’lim asoslaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni individual yondashuv asosida tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bu o‘quvchilarining o‘zlashtirish jarayonida umumiy ko‘rsatkichlariga erishishdan iborat. Unga ko‘ra, o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari mustaqil ta’lim vositasida yagonalashtirilgan shaklda bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mustaqil ta’limda o‘quvchilar o‘zlashtirishi bo‘yicha ko‘rsatkichlar uchun yagona mezonlar belgilanadi. Bunday mezonlarning tarkibini chuqurlashtirilgan bilim olish, o‘z fikrini mustaqil ifodalay olish hamda yozma va yozaki nutqda tahlil qila olishdan iborat. Bu ko‘nikmalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari engligiga erishiladi. Misol uchun, har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilarining chuqurlashtirilgan bilim olishiga erishish muhim sifatlardan biridir. Bunda mustaqil ta’lim vaositalariga

⁶ Jabborova O. M. Individual yondashuv texnologiyasi asosida boshlang‘ich ta’lim menejerlarini tayyorlash metodikasi. Monografiya. – Chirchiq: “Zebo print” 2023. 5-bet.

tayangan holda kutilgan samaraga erishiladi. Yoki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'z fikrini ifodalay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi ham mustaqil ta'lim asoslaridan birini tashkil qiladi. Shu ma'noda mustaqil ta'limga oid individual yondashuvlar o'quvchilar shaxsi hamda guruhining uyg'unlashgan shaklda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Diqqat qilinsa, mustaqil ta'limni tashkil qilishda individual yondashuv metodikasi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi.

Mutaxassislarning axborot bilan ishlash mustaqil ta'lim metodikasini tashkil qilish. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim muammolari bo'yicha mutaxassis hisoblangan pedagog olimlar tomonidan barcha masalalar qatorida mustaqil ta'limni tashkil qilish muammolari va ularning metodikalari bo'yicha yangi shakllar va metodikalar ishlab chiqilmoqda. Shu jihatdan mustaqil ta'limni tashkil qilishda mutaxassislarning individual metodikalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu o'rinda ana shunday yangi metodikalardan foydalangan holda boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi tahliliga e'tiboringizni tortamiz:

- 1) elektron-modulli didaktik ta'minot metodikasi;
- 2) kompyuterli dasturli metodika;
- 3) pedagogik ta'lim innovatsion klasteri metodikasi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Sh.Q.mardonov tomonidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minoti ishlab chiqilgan.⁷ Mazkur didaktik ta'minot asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasini shakllantirish va uning vositasida boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim samaradorligini oshirishga erishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu metodika biz tomonimizdan quyidagicha shakllantirildi:

- a) elektron-modulli didaktik ta'minot mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha kompyuterli dastur asosida tayyorlanadi;
- b) bunda topshiriqlarni turli variantlarda berish va ularning

⁷ Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan o'qitishning electron modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. O'quv-uslubiy q'o'llanma. – Toshkent, 2021

ishoblanishini kompyuter dasturida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi;

v) elektron-modulli didaktik ta'minotda mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha avval savollar va undan keyin ularga javoblar shaklidagi matnlar joylashtiriladi;

g) asosiy e'tibor o'zlashtirish jarayonini mustaqil amalga oshirishga qaratiladi.

Bu metodikada mustaqil ta'lim faqat o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Ya'ni, berilgan topshiriqlar va masalalarni o'quvchilar katta yoshlilar yordamisiz bajaradi. Bunda o'quvchilar quruvchi o'quv materiallarini taqdim qilish vazifasini bajaradi. Kurashishlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar elektron-modulli didaktik ta'minot asosida tashkil qilinadigan mustaqil ta'limga piqish bilan yondashadi. Chunki ular kompyuter, ta'lim plansheti va mobil aloqa vositasida o'qib-o'rganishga nisbatan ko'proq vaqt o'shalishadi. Shu sababli bu metodika asosida o'quvchilarini uyg'a yuziha yuklamasining ortib ketishidan asrash mumkin. Bundan ashabqari, mazkur metodika asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish o'quv fanlari turkumlarining eng asosiy mavzulari bo'yicha amalga oshiriladi. Misol uchun, Matematika o'quv fanidan beriladigan masalalar yoki misollar yechimi dars jarayonida o'zlashtirishi murakkab bo'lgan mavzulardan tanlanadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini murakkab misol yoki topshiriqlarni piqish va osonlik bilan bajarishga erishadi.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishning kompyuter dasturli metodikasida asosiy e'tibor mustaqil ta'lim o'quv materiallarini ishlab chiqish va ularda mavzular kesimi bo'yicha yangi ma'lumotlarni berishiga qaratiladi. Buning uchun quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) kompyuterli dastur asosida mustaqil ta'limning o'quv materiallarini tuzishda undan istalgan vaqt rejimida foydalanish imni yaratiladi;

b) kompyuterli dastur o'quv materialida ma'lumotlarni yangilash va har bir o'quv yili boshida uni takomillashtirish tizimi yo'liga qo'yiladi;

v) kompyuterli dastur asosida tayyorlangan o'quv materialari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim planshetlariga yuklab

beriladi (bunda ta'lim planshetlarining faqat o'quv materiallaridan iborat ekanligi va ularda boshqa malumotlarning mayjud emasligi kutilgan samarani beradi);

g) kompyuterli dastur asosidagi mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlarini o'zlashtirish bo'yicha maxsus savollar taqdim etiladi va o'zlashtirish jarayonini kompyuter vositasida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'limning mazkur metodikasi bo'yicha mamlakatimizda muayyan tajriba bor. Misol uchun, multimediali o'quv materiallarini tayyorlash tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli har bir o'quv fanining o'qituvchilarini mazkur metodika bo'yicha malaka bilan qurollantirish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish lozim.

Mustaqil ta'limning individual yondashuv asosida tashkil qilish metodikalaridan biri pedagogik ta'lim innovatsion klasteridir. Mazkur metodika asosida mustaqil ta'lim quyidagicha tashkil etiladi:

a) mustaqil ta'limning o'quv materiallarini tuzish va uni o'quvchilarga taqdim etishda boshlang'ich sinf o'qituvchilar, boshlang'ich ta'lim Metodik kengashi a'zolari, sinf rahbarlari va imkon qadar mustaqil ta'lim metodikasi bo'yicha mutaxassis ishtirokida guruh tuziladi;

b) mazkur guruhda boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'zlashtirish jarayonini nazorat qiladi, Metodik kengash a'zolari o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholashni amalga oshiradi, mutaxassis esa mustaqil ta'lim o'quv materiallarini yangilanib borishini ta'minlaydi va sinf rahbarlari mazkur jarayonni tashkiliy jihatdan uyushtiradi;

v) mazkur klaster metodi asosida o'quvchilarning o'zi qiziqqan o'quv fanlari bo'yicha mustaqil ta'limni kengaytirilgan yoki qisqartirilgan shaklda tashkil qilinadi;

g) bu metodi bevosita amaliyotga yo'naltirilganligi bilan samarall hisoblanadi.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'limni individual yondashuv asosida va kutilgan darajada tashkil qilish uchun nisbatan hamkorlik asosida ta'lim jarayoni amalga oshiriladi.

Ustoz-shogird an'anasi asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish metodi. Mamlakatimizda ustoz-shogird an'anasi o'ziga xos tajribaga ega. Shu jihatdan mazkur metodika asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish quyidagilarga asoslanadi:

1) o'quvchilar qiziqishlari bo'yicha maktab bilan hamkorlik qilagan oliy ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilariga biriktiriladi;

2) umumiyo'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida hamkorlikdagisi oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining individual mustaqil ta'lim to'garagi tashkil qilinadi;

3) hamkorlik asosida tashkil qilinadigan mustaqil ta'limning etajlari maxsus tashxis etiladi.

Mamlakatimizda hududlarga oliy ta'lim muassasalari umumiyo'rta ta'lim maktablariga biriktirilgan. Mazkur oliy ta'lim muassasalarning professor-o'qituvchilariga o'quvchilarni qiziqishiga asosan biriktirish, ularning bilim olish jarayonini kengaytiradi. Chunki professor-o'qituvchilar mustaqil ta'lim nazariyasi, didaktikasi va metodikasidan yetarli darajada xabardor hisoblanadi. Natijada ular uslublari bilan o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil qilish jarayonini amalga oshiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining professor-o'qituvchilarga biriktirilishi ularda bilim olishga qiziqishni oshirishga xizmat qilishini eslatib o'tish joiz. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi ustoz bilan ishslash jarayoniga qiziqishadi va bunda professor-o'qituvchilarning ilmiy mahoratidan foydalanish ham amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim bosqichida umumiy ta'lim maktablariga biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar individual mustaqil ta'lim to'garaklarini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati institutining professor-o'qituvchilar umumiyo'rta ta'lim maktablarida o'zlarining mustaqil ta'lim to'garaklarini tashkil etgan. Bunday to'garaklar haftada ikki marotaba mashg'ulotlarni amalga oshiradi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash jarayoni kengayib torayotganligini eslatib o'tish joiz. Shu ma'noda bunday tajribalar asosida umumiyo'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida professor-o'qituvchilarning individual mustaqil ta'lim to'garaklarini tashkil qilib, ular vositasida o'quvchilarni bilimini kuchaytirish va tarbiya olish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday to'garaklar nafaqat mustaqil ta'lim amaliyoti uchun, balki boshlang'ich ta'lim sifatiga

erishishda ham omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Klaster metodi asosida tashkil qilinadigan mustaqil ta'lim natijalari maxsus tashxislanib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday tashxislashda mustaqil ta'limni tashkil qilish asoslari, vositalari, jihozlari, vaqt rejimi, ta'lim muhiti, o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari va mustaqil ta'limning umumiyo samaradorligi o'rganilib baholanadi. Bunday tashxislash jarayonini har bir o'quv yili oxirida amalga oshirish va uning natijalari asosida yangi o'quv yilining mustaqil ta'limi o'quv materiallarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan klaster metodi mustaqil ta'limni amalga oshirishning amaliy mexanizmlaridan biri ekanligini eslatib o'tish joiz. Bunday metoddan Rossiya Federatsiyasi ta'lim muassasalarida keng foydalanib kelinayotganligini va ulardan foydalanish mumkinligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni individual yondashuvlar asosida tashkil qilish metodikasi amaliy ahamiyatiga ega ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Bunda individual yondashuv xususiyatlarini aniq belgilab olish, mutaxassislar ishtirokida mustaqil ta'limni amalga oshirish va ustoz-shogird an'anasi vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish amaliy samaralarni beradi.

Ikkinci bob bo'yicha xulosalar

1) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasidan foydalanishda o'quituvchilarining faolligi va vaqt rejimi asosiy masala hisoblanadi. Bunday tashqari, mustaqil ta'limning har bir mashg'uloti o'quv fanlarining muayyan mavzularini chuqurlashtirilgan tarzda tushuntirishga yo'naltiriladi.

2) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni to'garak mashg'ulotlari vositasida tashkil qilish metodikasi ham amaliy samarador hisoblanadi. Unda imkon qadar o'quvchilarining individual to'garaklarini tashkil qilish, bunday to'garaklar mashg'ulotlarini texnologik vositalar asosida qiziqarli o'tkazish va asosiy e'tiborni to'garaklar mashg'ulotlarida o'quvchilarining mustaqil ishslash ko'nik masini shakllantirishga qaratilishi kutilgan samarani beradi.

3) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni individual yondashuv-

osida tashkil qilish metodikasida yangiliklarga asoslanish, mutaxassislarining to'garaklarini yo'lga qo'yish va ustoz-shogird anasiga tayanih maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiy o'rta ta'lim maktabi biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilariga qiziqishlari bo'yicha biriktirib qo'yilishi amaliy samarani beradi.

4) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning metodik omillari bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini oly pedagogik ta'lim jarayonida qurollantirish ularning kasbiy tayyorligini kengaytiradi. Chunki mustaqil ta'lim amaliyotga o'naltilganligi bilan ta'lim va tarbiya berishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

III-BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA'LIMNING SAMARADORLIGI DIAGNOSTIKASI.

3.1. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyoti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida (2023 yil) quyidagi vazifa alohida ta'kidlangan: "O'quvchilarда erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarur". Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil ta'lim vositasida mazkur vazifalarning ijrosiga tayyorlash dolzarb bo'lib turibdi. Chunki mustaqil ta'lim bo'lajak o'quvchilarida erkin va ijodiy fikrlash hamda jamoaparvarlik va muloqot ko'nikmalarini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Buning uchun mustaqil ta'limning amaliyoti masalasi bo'yicha tushunchaga ega bo'lish taqozo etiladi. Mazkur o'rinda ana shu masalaning tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

Haftalik amaliyot vositasi. Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim muassasalarining talabalari haftaning to'rt kunida ilmiy-nazariy mashg'ulotlarda va qolgan ikki kunida bevosita ta'lim muassasalarida amaliy faoliyatda bo'imloqda. Shu ma'noda bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim ko'nikmasini shakllantirish uchun ularning haftalik pedagogik amaliyoti muhim o'rinni tutadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan bilimlarini amaliy tajribadan o'tkazish;
- b) mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan ko'nikmalarini tajribadan o'tkazish;
- v) mustaqil o'qish bo'yicha o'quvchilarning ko'rik va tanlovlарини tashkil etish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilar o'zlarini biriktirilgan umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarida mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini amaliy tajribadan o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'zlashtirgan bilim asosida qo'shimcha darslar tashkil qilish, o'quvchilar bilan suhbatlar

ikazish va o'quvchilarini mustaqil o'qish bo'yicha yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida egallangan bilimlarning mustahkamlanishi va ularning ko'nikmaga aylanishi jarayoni tarkib topadi. Shu jihatdan mustaqil ta'limning eng muhim asoslaridan biri o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tadbiq etishdir. Bunda egallangan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish malakasini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda talabalarning haftalik pedagogik amaliyoti imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur masala talabalar biriktirilgan professor-o'quvchilar tomonidan nazorat qilib borilishi kutilgan samaraniga beradi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, talabalarning haftalik pedagogik amaliyoti vositasida mustaqil ta'limni amaliy jihatdan ta'chaytirish muhimdir. Aynan mazkur amaliyot mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirishini eslatib o'tish joiz. Bu sababli talabalarning haftalik pedagogik amaliyoti vazifalariga mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirganlarini tajribadan o'tkazish vazifasini ham qo'shilishi bu boradagi o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi. Bunda ayniqsa, o'quv fanlarining mustaqil ta'lim qismining tajriba-sinovdan o'tkazilishiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilar mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan ko'nikmalarini haftalik amaliyot davrida umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarida tajribadan o'tkazishi amaliy jihatdan muhimdir. Unda o'qilgan kitoblar, o'zlashtirilgan mavzular hamda ma'lumotlar asosida o'zlarini biriktirilgan umumiyligi o'rta ta'lim maktabalarida qo'shimcha mashg'ulotlarni o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun, "O'quvchilik kasbi" mavzusida o'quvchilar bilan suhbatlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega va unda qo'shimcha ma'lumotlarga tayanilishi kerak. Bu bilan birinchidan, talabalarning ko'nikmalarini mustahkamlanadi; ikkinchidan, o'quvchilar o'quvchilik kasbiga bo'lgan qiziqish paydo bo'ladi. Shu sababli mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan yangi ma'lumotlar asosida o'quvchilik kasbi to'g'risida so'zlab berish muhim ahamiyatga ega. E'tibor berilsa, bunday yondashuv bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilar uchun keng imkoniyatlarni beradi. Chunki shaxs

mustaqil o'qish vositasida o'zlashtirgan ko'nikmalarini tajribadan o'tkazishi bilan uning malakaga aylanishini amalga oshiradi. Shu sababli bilimdan ko'nikmaga, ko'nikmadan malakaga tamoyiliga asosan umumiy o'rta ta'lif maktablarida talabalar o'zlarining mustaqil o'qish ko'nikmasini tajribadan o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta'lifning amaliy vositalaridan biri o'quvchilar bilan mustaqil o'qish ko'rik va tanlovlardan o'tkazishdir. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil ta'lif vositasida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalariga tayangan holda o'quvchilar bilan turli tadbirdarlarni, ayniqsa, o'quvchilarning ko'rik va tanlovlarni tashkil etishi amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Buning uchun avvalo o'quvchilarga mustaqil o'qish uchun qo'shimcha adabiyotlar taqdim qilinadi, ular bilan o'qigan kitoblari yuzasidan suhbatlar o'tkaziladi va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi aniqlanadi. Shundan keyin o'quvchilarning mustaqil o'qigan kitoblari bo'yicha ko'rik va tanlovlardan o'tkazish amalga oshiriladi. Bu bilan birinchidan, talabalarning mustaqil ta'lif bo'yicha ko'nikmalarini va bilimlari amaliy sinovdan o'tadi; ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil o'qish bo'yicha layoqatlarini rivojlantirishga erishiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilar har qanday ko'rik va tanlovlarda ishtirok etishga qiziqish bilan munosabatda bo'lishadi. Demak, bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilar oliy pedagogik ta'lif jarayonida o'quvchilarda mustaqil o'qish ko'nikmasi va layoqatini rivojlantirishga doir amaliy va nazariy asoslarni o'zlashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyotida talabalarning haftalik amaliyot vositasi muhim o'rinn tutadi. Aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini auditoriya mashg'ulotlari vositasida mustaqil ta'lif bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini haftalik amaliyot davrida tajriba-sinovdan o'tkazishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- a) o'quvchilar bilan mustaqil ta'lifni tajriba qilib ko'rish;
- b) tajribali boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlik qilish;
- v) tajribadan o'tgan amaliyotni yozma shaklda rasmiylashtirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilar haftalik pedagogik amaliyot davrida o'quvchilar bilan birgalikda mustaqil ta'lif

shaklini tashkil qilib, amalga oshirishi muhim amaliy vositadir. Buning uchun o'quvchilarning qiziqishlari va xohishlaridan kelib chiqib o'quv fanlarining muayyan mavzulari bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil qilish, o'quvchilarning taqdimnomalarini tashkil etish va o'quvchilarning muayyan masala bo'yicha bahsimozara kechalarini amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Buning natijasida talabalarning mustaqil ta'lif asoslari bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari muhim amaliy malakaga aylana boradi. Bunday amaliy imkoniyatlardan oqilona foydalangan bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari kelgusi faoliyatida mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyoti bo'yicha eng qulay faoliyat imkoniyatlariga ega bo'lishini eslatib o'tish joiz.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining haftalik amaliyot davrida tajribali boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan hamkorlik qilishi ham bu boradagi muhim amaliy vositalardan biridir. Unga ko'ra, tajribali boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quvchilar bilan mustaqil ishlash va ularni individual yo'naltirish bo'yicha amalga oshirib kelayotgan ishlari va metodlari to'g'risida ma'lumot berishadi. Bunday metodlarni amaliyotda sinab ko'rish tavsiya qilinadi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lifni tashkil etish bo'yicha o'zlashtirgan ko'nikmalari va malakalari o'quvchilarning tajribalari vositasida rivojlanib boradi. Shuni unutmaslik lozimki, har bir tajribali o'quvchidan yangi bir metod yoki ma'lumotni o'zlashtirish imkoniyati mavjud. Shu jihatdan mamlakatimiz boshlang'ich ta'lif bosqichida fidoyi va tajribali o'quvchilarning mustaqil ta'lif bo'yicha yillar sinovidan o'tgan metodlari, yondashuvlari, vositalari va ishlanmalarini o'zlashtirish muhim amaliy ahamiyatga egadir. Aslida haftalik pedagogik amaliyotning asosiy vazifalaridan biri ham ana shunday imkoniyatlarni keng o'zlashtirishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tajribalari mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyotida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'ziga so'z tajriba maydonchasi ham hisoblanadi. Bunday imkoniyatdan oqilona foydalananish tavsiya etiladi.

Haftalik amaliyot vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyoti bo'yicha ko'nikmalarini kengaytirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki haftalik

amaliyot davrida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar o'quvchilar bilan o'tkazgan mustaqil ta'lim mashg'ulotlari va tajribalni o'qituvchilarning metodlarini o'zlashtirgan masalalarni yozma shaklda rasmiylashtirish muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu ikki faoliyat asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyoti bo'yicha tajribalari kengaygan hisoblanadi. Aynan o'quvchilar bilan tashkil etilgan mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining Bayonnomalarida rasmiylashtirilishi va o'quvchilardan o'zlashtirgan metodlari chizmalar shaklida taqdim etilishi kelgusida talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyoti bo'yicha tayyorlashda amaliy manbalar bo'lib xizmat qiladi. Bu ishni talabalarga biriktirilgan professor-o'qituvchilar tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, mustaqil ta'limni tashkil etish bo'yicha talabalarning haftalik pedagogik amaliyot vositasidan foydalanishi keng imkoniyatlarni beradi. Bu bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim bo'yicha bilimlari, ko'nikma va malakalari amaliy tayanchlar sifatida tarkib topadi. Ayni paytda, mustaqil ta'lim asoslari bo'yicha talabalarning faollashuviga erishiladi.

"Talabalar akademiyasi" vositasi. Mustaqil ta'limni tashkil etishning muhim amaliyotlaridan biri bu – "Talabalar akademiyasi"dir. Mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar bo'yicha "Talabalar akademiyasi" imkoniyatlardan foydalanish ham muhim amaliy natijalarni beradi. Unga ko'ra, mazkur akademianing ishtirokchilari mustaqil ta'lim bo'yicha treninglar, bahs-munozaralar va o'zları o'qigan kitoblar bo'yicha kollekviumlar o'tkazilishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki bu tuzilma talabalarni nafaqat kasbiy faoliyatga, balki ularni kasbiy-ilmiy tadqiqotchilikka ham tayyorlaydi. Shu jihatdan mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar bo'yicha bu akademianing tadbirlarini maqsadli amalga oshirish kutilgan samarani beradi. Chunki bunday tadbirlar bevosita talabalar tomonidan tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan amaliy xususiyatga ega bo'ladi. Mustaqil ta'limning eng muhim jihatlaridan biri o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini bevosita jamoatchilik nuqtai nazaridan o'tkazib olishdir. Shu ma'noda mazkur akademiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim bo'yicha o'ziga xos laboratoriya vazifasini bajarishi

kerak. Bunda talabalar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar bo'yicha o'zlarining tajribalarini o'rtoqlashadi, kamchiliklarini anglab yetishadi va o'zgalardan mustaqil o'qish bo'yicha yondashuvlarni o'zlashtiradi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, talabalar biriktirilgan professor-o'qituvchilar mazkur akademiyada mashg'ulotlarida mustaqil ta'lim bo'yicha tadbirlarni tashkil etishda faollik ko'rsatishi kutilgan samarani beradi. Shu jihatdan "Talabalar akademiyasi" vositasida quyidagilarga erishish mumkin bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mutolaa madaniyatini kutilgan darajada tarkib toptirishga erishish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish;
- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tahlil ko'nikmasini shakllantirish.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mutolaa madaniyatini kutilgan darajada tarkib toptirish mustaqil ta'limning muhim amaliy vositalaridan biridir. Chunki mutolaa jarayonida o'quv shababiyotlarining va qo'shimcha ma'lumotlarning ma'no-mazmunini tushunish, asosiy g'oyalarni idrok etish va ulardagi yondashuvlarni farqlay olish muhim ahamiyatga ega. Mutolaa madaniyatining muhim xususiyatlaridan yana biri ifodali va tez o'qishdir. Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kelgusi faoliyatida muhim o'rinn tutadi. Shu sababli ularning tushunish, idrok, ifoda va tez mutolaa qilish ko'nikmalarini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi mutafakkirlar juda tez o'qish tajribasiga ega bo'lgan, ayrimlari esa sekin o'qish bilan o'qilayotgan manbalarning ma'nolarini tahlil qilib borishga e'tibor berishgan. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mutolaa madaniyatiga oid turli yondashuvlar to'g'risida tasavvurlar bosil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning natijasida ular kelgusi kasbiy faoliyatida aynan ularga tayangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mutolaa madaniyatini shakllantirish ishini amalga oshiradi.

Mustaqil ta'limning amaliy masalalaridan biri shaxsning nutqini rivojlantirishdir. Shu jihatdan mustaqil ta'lim vositasidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki o'qituvchining

nutqi ravon, ifodali, tushunarli, qisqa va ma'noli bo'lishi kerak. Buning uchun mustaqil ta'lif vositasida pedagogning nutq madaniyatini asoslarini chuqur o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar o'qituvchi pedagogik xususiyatga va nutq madaniyatiga ega bo'lsa, o'quvchilarining nutqi ham shu tariqa rivojlanadi. O'qituvchining eng muhim quroli bu nutqdir. Shuningdek, o'qituvchining yozma nutqida husnixat qoidalariga rioya qilingan, imloviy xatolarsiz, chiroyli, qisqa va mazmunli xususiyatlari bo'rtib turishi kerak. Bu ko'nikmalarini o'zlashtirishda ham mustaqil ta'lif amaliy imkoniyatlarni beradi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari nutq madaniyatini masalasida o'zgalarga na'muna bo'lishi va o'zgalarni pedagogik nutq xususiyatlari bilan qurollantirish imkoniyatlariaga amal qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lif jarayonida mustaqil ta'lif vositasida nutq madaniyatining asoslarini pedagogik jihatdan o'zlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Mustaqil ta'lif vositasida o'qilgan va o'zlashtirilgan adabiyotlar hamda ma'lumotlarni tahlil qila olish ham mazkur ta'lifning amaliy shartlaridan biridir. Bunda adabiyotlarning til xususiyatlari, mazmun ifodasi, yangicha fikrlar berish jihatlari va ularning o'quvchilar ta'lif tarbiyasida tutgan o'rni masalalari bo'yicha tahlil jarayoni amalga oshiriladi. Bunday ko'nikmalarini aynan mustaqil ta'lif vositasida egallash muhim ahamiyatga ega. Chunki mustaqil ta'lif jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari erkin faoliyat ko'rsatadi, o'zlarini qiziqtirgan adabiyotlar va ma'lumotlarga murojaat qiladi, o'zlariga ma'qul bo'lgan mutafakkir va pedagoglarning asarlarini mutolaa qilib, ular to'g'risida fikrlaydi. Aynan mustaqil ta'lif vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tahlil ko'nikmasini tarkib toptirish muhim masalalardan biridir. Buning uchun ularning yozma va og'zaki tahlil uslublarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ular kelgusi faoliyatlarida ana shu malakaga tayangan holda o'quvchilarining tahlil qila olish ko'nikmlarini tarkib toptiradi.

Boshlang'ich ta'lilda mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyotini o'zlashtirishda talabalarning tashabbusi vositasidan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) talabalarni tashabbuskorlikka yo'naltirish;

b) talabalarning tashabbuslarini monitoring qilib borish;

v) talabalarning tashabbus vositasida mustaqil ta'lif vositasida ko'nikmasining shakllanishini nazorat qilish.

Mustaqil ta'lif jarayoni amaliyotida talabalarni tashabbuskorlikka yo'naltirish muhim vositalardan biridir. Bunda ularning mustaqil ta'lif bo'yicha fikrlarini o'rganish, yondashuvlarini tahlil qilib borish va ular duch kelayotgan muammolar to'g'risida uniq axborotlarni to'plash muhim ahamiyatga egadir. Buning natijasida talabalarda mustaqil ta'lif asoslari va uning amaliyoti bo'yicha tashabbuslar ko'lami tarkib topadi. Shu jihatdan mustaqil ta'lif jarayonini tashkil etishda talabalarning "Tashabbus maydonchasi"larini tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Bunda ularning har bir tashabbuslarini tahlil qilish va talabalarda umumiy tashabbuskorlik ko'nikmasini tarkib toptirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mustaqil ta'lifni tashkil etish aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik sayoqatlarini rivojlantirib borishga asoslaniladi.

Boshlang'ich ta'lilda mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyotida mazkur masala bo'yicha talabalarning tashabbuslarini monitoring qilib borish muhimdir. Unga ko'ra, har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ta'lif asoslari, metodikasi, texnologiyasi va amaliyoti masalalariga doir har bir tashabbusi e'tibordan soqit qillomasligi lozim. Chunki har bir tashabbusda o'ziga xos g'oyalar, yangiliklarga asos bo'ladigan fikrlar va ishlanmalarga tayanch bo'ladigan yondashuvlar mavjud bo'ladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lif bo'yicha tashabbuslarini muntazam monitoring qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur monitoring jarayoni talabalar biriktirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samarani beradi. Bunday yondashuv tashabbusdan amaliyotga ko'nikmasini tarkib toptiradi. Natijada mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyoti bo'yicha eng ma'lumotlar majmuiga ega bo'linadi.

Mustaqil ta'lifni tashkil etish amaliyotida talabalarning o'z tashabbuslari asosida tarkib topayotgan ko'nikmalarini nazorat qilib borish taqozo etiladi. Buning uchun talabaning tashabbuslarida qidim etilgan yangiliklarni o'rganish, ularni umumlashtirish, talabaning o'zida mustaqil ta'lif bo'yicha individual harakatning

paydo bo‘lishini kuzatish va eng faol talabalarni namuna sifatida taqdim etish muhim amaliy samaralarni beradi. Chunki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tashabbus ko‘nikmasining tarkib topganligi ularning mustaqil ta’lim bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarining kuchayishiga asos bo‘ladi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda talabalarning mustaqil tashabbuslariga juda e’tibor qaratiladi va shunday tashabbuslar majmuidan ta’lim jarayonini tashkil etishda oqilona foydalaniladi. Shu ma’noda bugungi kunda oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim amaliyoti bo‘yicha tashabbuskorlik ko‘nikmasini shakllantirish dolzarb bo‘lib turibdi.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotida “Talabalar akademiyasi” vositasining imkoniyatidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) “Talabalar Akademiyasi” mashg‘ulotlari ko‘lamini kengaytirish;
- b) mazkur tuzilma ishtirokchilari safini oshirib borish;
- v) ushbu tuzilma ishtirokchilari tomonidan yaratilgan yangiliklarni joriy qilib borish.

“Talabalar Akademiyasi” mashg‘ulotlari ko‘lamini kengaytirishda mustaqil ta’limni tashkil etishning amaliy jihatlariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ushbu Akademiya ishtirokchilarining mustaqil ta’lim bo‘yicha individual yondashuvlarini muhokama qilish, uning ishtirokchilarini mustaqil ta’lim assoslari bo‘yicha turli jihozlar yaratishga jalb qilish va mustaqil ta’limni noan’anaviy shakllari bo‘yicha talabalarning fikr-mulohazalarini umumlashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Aynan bu vositalar mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Chunki ular bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim bo‘yicha individual yondashuvlari, ko‘nikma va malakalarini tarkib topishida omil vazifasini o‘taydi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, mustaqil ta’limni tashkil etishda har bir o‘qituvchining individual yondashuvga ega bo‘lishi muhim o‘rin tutadi. Aynan individual yondashuv mustaqil ta’limning noan’anaviy shakllarini kashf etishda muhim rol o‘ynaydi.

Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotida “Talabalar akademiyasi”ning ishtirokchilari ko‘lamini kengaytirish

ahamiyatga egadir. Aslida mazkur tuzilma iqtidorli talabalar uyushmasi sifatida tarkib topgan. Biroq, talabalarning iqtidori ro‘yjatish jarayonida bo‘lganligi hisobga olinib, ularning layoqat jarajasi har bir kurs kesimida aniqlab borilishi va ushbu aksamiyaning ishtirokchi bo‘lishiga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning natijasida “Talabalar akademiyasi” tuzilmasi imkoniyatlaridan kelib chiqib, iqtidorli talabalar safini kengaytirish va shunday talabalar vositasida mustaqil ta’limni kutilgan darajada tashkil etish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Mazkur talabalarning tuzilmasi keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, uning mashg‘ulotlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyalari bo‘yicha malakalar berishini eslatib o‘tish bўzi. Shu sababli ushbu talabalar uyushmasining imkoniyatlaridan foydalanilgan holda mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotiga doir texnologiyalarni ishlab chiqish muhim va dolzarb masalalardan o‘blanadi.

Mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotida “Talabalar akademiyasi” ishtirokchilari tomonidan yaratilgan ishlanmalar, metodikalar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish muhim o‘rin tutadi. Misol uchun, muayyan talaba mustaqil ta’lim asoslari bo‘yicha ishlanma yaratdi, uning bu ishlanmasi oliv pedagogik ta’lim mashg‘ulotlarida foydalanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, yoki talabalar guruhi tomonidan mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha noan’anaviy metodika ishlab chiqildi, bu metodikadan mustaqil ta’lim bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yohud iqtidorli talaba tomonidan mustaqil ta’limni tashkil etish bo‘yicha yangi texnologiya yaratildi, shunday texnologiyadan talabalarning haftalik pedagogik amaliyotida foydalanish muhim natijalarni beradi. E’tibor berilsa, “Talabalar akademiyasi” ishtirokchilarining yaratmalarini mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotida joriy etish va ulardan oqilona foydalanish mazkur faoliyat bo‘yicha samaradorlik ko‘lamini kuchaytiradi. Shu jihatdan mustaqil ta’limni tashkil etish amaliyotiga doir eng muhim metodikalar, texnologiyalar va ishlanmalarning aynan mazkur Akademiya ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, bularning barchasini “Talabalar akademiyasi”

faoliyati vositasida tashkil etish va amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aslida mazkur tuzilma ana shunday vazifalarini amalga oshirish maqsadida shakllantirilganligini eslatib o‘tish joiz. Bu tuzilmadan maqsad bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini amaliy jihatdan kuchaytirishdir.

Talabalarning tashabbusi vositasi. Mustaqil ta’limning muhim amaliy vositalaridan biri bu – talabalar tashabbusidir. Unga ko‘ra, talabalar mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari, o‘qiladigan adabiyotlar tarkibi va o‘zlashtiriladigan ma’lumotlar ko‘lami to‘g‘risida o‘zlarining individual tashabbuslarini bildiradi. Bunday tashabbuslar vositasida talabalarga biriktirilgan professor- o‘qituvchilar mustaqil ta’limning tadbirlarini belgilashadi. Shu jihatdan bu borada quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) talabalarning tashabbuslarini muntazam o‘rganib borish;
- b) talabalarning yangi tashabbuslari asosida mustaqil ta’lim tadbirlarini belgilash;
- v) talabalarning tashabbuslari asosida ularning mustaqil ta’lim bo‘yicha ko‘nikmasini baholash.

Mustaqil ta’lim jarayonini tashkil etishda talabalarning tashabbuslariga asoslanish amaliy jihatdan samarali hisoblanadi. Unga ko‘ra, har oyda bir marta talabalardan mustaqil ta’lim tadbirlari bo‘yicha fikrlari yoki tashabbuslari ifodalangan yozma ma’lumotlar olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda ular o‘qiladigan o‘quv adabiyotlari, o‘zlashtiriladigan qo‘srimcha ma’lumotlar hamda ularning ahamiyati to‘g‘risida o‘z fikrlarini bildirishi yoki individual tashabbuslarini taqdim etishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik talabalarda yangi pedagogik adabiyotlar bo‘yicha ma’lumotlar mavjud bo‘ladi. Bunday ma’lumotlarni ular internet jahon axborot tarmog‘idan olishadi. Shu sababli talabalarning yozma shakldagi tashabbuslarda aks etgan bunday ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish ularni mustaqil ta’lim jarayoniga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki ko‘pchilik talabalar ma’lumotlar bilan ishlashda murakkablikka duch kelishadi. Bunda ular biriktirilgan professor-o‘qituvchilarining faol bo‘lishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarning yozma shakllar asosida bildirgan tashabbuslari tahlil qilinib, ularga binoan mustaqil ta’lim tadbirlari ishlab chiqilishi

maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday tadbirlar qo‘srimcha o‘quv adabiyotlari yoki ma’lumotlar vositasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nazariy-kasbiy bilimlarini chuqurlashtirishni, pedagogik ko‘nikmalarini kengaytirishni va mustaqil faoliyat malakalarini tarkib toptirishni nazarda tutishi kerak. Shu sababli mutaxassislik (majburiy) o‘quv fanlarining professor-o‘qituvchilar mustaqil ta’lim tadbirlarini ishlab chiqishda talabalarning tashabbuslarini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki talabalarda har bir masalalar bo‘yicha yangicha yondashuvlar mavjud bo‘lishini eslatib o‘tish joiz. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, ularning tashabbuslari asosida har chorakda mustaqil ta’lim tadbirlarining yangilanib borishi amaliy jihatdan kutilgan samarani beradi. Negaki, mustaqil ta’lim tadrijiy rivojlanib boruvchi ta’lim shakli bo‘lib, u bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyaning dinamik takomillashuviga asoslanadi.

Talabalarning yozma tashabbuslarini o‘rganish vositasida ularning mustaqil ta’lim bo‘yicha ko‘nikmasi darajasini aniqlash va baholash mumkin. Chunki aynan talabalarning tashabbuslarida ularning mustaqil ta’lim asoslari va metodlarini bilih darajasi o‘z ifodasini topadi. Bunda talabalar biriktirilgan professor-o‘qituvchilar asosiy e’tiborni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlanib borish jarayoni va xususiyatlarga qaratishi kerak. Shu jihatdan baholash – bu avvalo ko‘rsatkichlarni aniqlash va ularni yuksaltirishning yo‘nalishlarini belgilab olishdir. Mustaqil ta’lim bo‘yicha ko‘nikmani baholashda aynan talabalarning fikrlariga asoslanish taqozo etiladi. Ko‘p hollarda ba’zi talabalar o‘z fikrlarini og‘zaki ravon ifodalasa-da, yozma ravishda ifodalashda murakkablikka duch kelishadi. Shu sababli talabalarning tashabbuslarini yozma shaklda qabul qilish, ularni tahlil qilish va olingan ma’lumotlar asosida baholash metodik jihatdan to‘g‘ri hisoblanadi. Mazkur masalalarning barchasi oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini monidan o‘zlashtirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Diqqat qilinsa, mustaqil ta’lim amaliyoti o‘ziga xos xususiyatlar, mezonlar va imkoniyatlarga tayanadi. Mazkur masalalarni kasbiy jihatdan chuqr o‘zlashtirish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini uchun zaruriyat hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lilda mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyotini o'zlashtirishdan talabalarning tashabbusi vositasidan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) talabalarni tashabbuskorlikka yo'naltirish;
- b) talabalarning tashabbuslarini monitoring qilib borish;
- v) talabalarning tashabbus vositasida mustaqil ta'lim vositasida ko'nikmasining shakllanishini nazorat qilish.

Mustaqil ta'lim jarayoni amaliyotida talabalarni tashabbuskorlikka yo'naltirish muhim vositalardan biridir. Bunda ularning mustaqil ta'lim bo'yicha fikrlarini o'rganish, yondashuvlarini tahlil qilib borish va ular duch kelayotgan muammolar to'g'risida aniq axborotlarni to'plash muhim ahamiyatga egadir. Buning natijasida talabalarda mustaqil ta'lim asoslari va uning amaliyoti bo'yicha tashabbuslar ko'lami tarkib topadi. Shu jihatdan mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda talabalarning "Tashabbus maydonchasi" ni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Bunda ularning har bir tashabbuslarini tahlil qilish va talabalarda umumiylash tashabbuskorlik ko'nikmasini tarkib toptirishga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki mustaqil ta'limni tashkil etish aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodkorlik layoqatlarini rivojlantirib borishga asoslaniladi.

Boshlang'ich ta'lilda mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyotida mazkur masala bo'yicha talabalarning tashabbuslarini monitoring qilib borish muhimdir. Unga ko'ra, har bir bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining mustaqil ta'lim asoslari, metodikasi, texnologiyasi va amaliyoti masalalariga doir har bir tashabbusi e'tibordan soqit qilinmasligi lozim. Chunki har bir tashabbusda o'ziga xos g'oyalar, yangiliklarga asos bo'ladigan fikrlar va ishlamalarga tayanch bo'ladigan yondashuvlar mavjud bo'ladi. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim bo'yicha tashabbuslarini muntazam monitoring qilib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur monitoring jarayoni talabalar biriktirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshirilishi kutilgan samaranani beradi. Bunday yondashuv tashabbusdan amaliyotga ko'nikmasini tarkib toptiradi. Natijada mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyoti bo'yicha keng ma'lumotlar majmuiga ega bo'linadi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish amaliyotida talabalarning o'z tashabbuslari asosida tarkib topayotgan ko'nikmalarini nazorat qilib borish taqozo etiladi. Buning uchun talabaning tashabbuslarida taqdim etilgan yangiliklarni o'rganish, ularni umumlashtirish, talabaning o'zida mustaqil ta'lim bo'yicha individual harakatning paydo bo'lishini kuzatish va eng faol talabalarni namuna sifatida taqdim etish muhim amaliy samaralarni beradi. Chunki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tashabbus ko'nikmasining tarkib topganligi ularning mustaqil ta'lim bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining kuchayishiga asos bo'ladi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda talabalarning mustaqil tashabbuslariga juda e'tibor qaratiladi va shunday tashabbuslar majmuidan ta'lim jarayonini tashkil etishda oqilona foydalaniladi. Shu ma'noda bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim amaliyoti bo'yicha tashabbuskorlik ko'nikmasini shakllantirish dolzarb bo'lib turibdi.

Shunday qilib mustaqil ta'lim amaliyoti oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi, ulardan foydalanish bo'yicha ko'nikmani egallanishi va kasbiy faoliyatga tayyorlanishda mustaqil ta'limning amaliy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

3.2. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning samaradorligini baholash

Boshlang'ich ta'lilda eng asosiy masalalardan biri o'zlashtirish jarayoni va uning samaradorligini baholashdir.⁸ Shu ma'noda bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning samaradorligini baholash masalasi tahliliga tortamiz.

Boshlang'ich sinflar kesimida baholash. Boshlang'ich ta'lilda mustaqil ta'lim vositasida o'quvchilarning bilim va tarbiya asoslarini o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholab borish muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda bu borada boshlang'ich sinflar kesimida o'quvchilar o'zlashtirishini baholash muhim metodikaga asoslanishi kerak.

⁸ Каранг: Жабборова О., Умарова З. Башлангич таълим диагностикаси. Монография. – Тошкент, 2023

Bunday metodikaning tayanchlarini quyidagilar tashkil qiladi:

1. 1-2 sinf o'quvchilarining bilim va tarbiyalanganlik ko'nikmalarini o'rganish va baholash;
2. 2-3 sinf o'quvchilarining bilim va tarbiyalanganlik darajasini o'rganish va baholash;
3. o'zlashtirish ko'rsatkichlarini boshlang'ich sinflar miqyosida tahlil qilish.

Boshlang'ich ta'lurma 1-2 sinf o'quvchilarining bilim va tarbiyalanganlik ko'nikmalarini o'rganish va baholash muhim ahamiyatga egadir. Chunki mazkur sinflarda o'quvchilar bilim va tarbiya olamiga olib kirladi. Shu ma'noda bunday baholashda quyidagilarga tayanilishini eslatib o'tish joiz:

- a) o'quvchilarining bilim darajasini baholash;
- b) o'quvchilarining tarbiya ko'nikmasini baholash;
- v) o'quvchilarining ijtimoiy ko'nikmalarini baholash.

Mustaqil ta'lim vositasida berilgan bilim darajasini baholash muhim ahamiyatga egadir. Chunki mustaqil ta'lim yuqorida ta'kidlab o'tilganidek muayyan mavzular bo'yicha o'quvchilarining bilimlarini chuqurlashtirishga yo'naltirilgan hisoblanadi. Shuningdek, mazkur sinflarda o'quvchilarining tarbiya ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining har birida "men"lik ko'nikmasi va shaxsiy fazilatlarning tarkib topganligi o'rganilib baholaniadi. Mustaqil ta'lim aynan ana shu masalalarga tarbiya jarayonida e'tibor beradi. Bundan tashqari, o'quvchilarining ijtimoiy ko'nikmalari o'rganilib baholaniadi. Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'quvchisida jamoaparvarlik, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ko'nikmalarining tarkib topganligi o'rganiladi. Natijada 1-2 sinf o'quvchilarining bilim va tarbiyalanganlik darjasini bo'yicha umumiyligi ma'lumotlarga ega bo'linadi.

Boshlang'ich ta'lurma 2-3 sinf o'quvchilarining bilim va tarbiyalanganlik darajasini o'rganib baholash ham muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun quyidagilarga tayanilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- a) o'quvchilarining tushunib o'zlashtirish darajasini baholash;
- b) o'quvchilarining mustaqil fikrlash darajasini baholash;
- v) o'quvchilarining mustaqil harakat darajasini baholash.

Boshlang'ich ta'lurma 2-3 sinf o'quvchilarini mustaqil ta'lim

vositasida berilayotgan bilimlarni va tarbiya asoslarini tushunib o'zlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'quvchilarining matn mazmunini tushunishi yoki masalaning mohiyatini anglashi, erkin o'z fikrini ifodalashi hamda o'zining faolligini namoyon qilishi ko'nikmalarini o'rganib baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmasining tarkib topganligi ham baholanadi. Bunda o'quvchilarining notanish matn bo'yicha fikrini bildirishi, masala yoki topshiriqlarni individual bajarishi hamda murakkab sharoitlarda o'zini tutishi ko'nikmalarini baholashga asosiy e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarining mustaqil harakat darajasi ham o'rganib baholanishi kerak. Bunda murakkab sharoitlardan o'quvchilarining cho'chimaslik ko'nikmasi, o'zaro yordam ko'nikmasi yoki murakkabliklarni jamoa bo'lib bartaraf etish ko'nikmasi o'rganib baholaniadi. Natijada o'quvchilarining mustaqil harakat ko'nikmasi bo'yicha aniq xulosalarga kelinadi. Shu tariqa mustaqil ta'lim vositasida amalga oshirilgan bilim va tarbiyalanganlik ko'rsatkichlari bo'yicha umumiyligi ma'lumotga ega bo'linadi.

Boshlang'ich sinflarda amalga oshirilgan samardorlik darjasini o'rganib, umumiyligi ma'lumot olingach ular tahlil qilinadi. Tahlil natijalari boshlang'ich sinflar kesimida baholaniib, qaysi sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari yuqori ekanligi belgilanadi. Bundan tashqari, baholash natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari duch kelayotgan murakkabliklar aniqlanib, ularni hal etish tadbirlari amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlarni sinflar kesimida umumlashtirish muktabning boshlang'ich ta'limidagi holat bo'yicha aniq tasavvurni beradi. Shu sababli mazkur masala bo'yicha o'ziga xos metodik yondashuvga ega bo'lish taqozo etiladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'rganish va baholash metodikasi bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini qurollantirilishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim samaradorligini choraklik shaklida baholash. Mustaqil ta'lim asosiy e'tiborni amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikmalarini choraklik shaklida baholab borish kutilgan samarani beradi. Bunda quyidagi metodikaga asos-

lanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllanganlik darajasini baholash;
- 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy fazilatlarini umum-fazilatlar bilan uyg‘unlashganligini baholash;
- 3) boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining umumiyligini ko‘nikmalari ko‘rsatkichlarini baholash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy ko‘nikmalarini baholash bugungi kunda zaruriyat bo‘lib turibdi. Bunda mustaqil ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kollabaratsiya, ya’ni ta’lim muhitidan foydalanish, kritisizm, ya’ni tanqidiy fikrlash, kreativlik, ya’ni ijodiy fikrlash va kommunikatsiya, ya’ni muloqot ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasini o‘rganib baholash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki mazkur ko‘nikmalarini tarkib toptirish mamlakatimizda 2023-2024 o‘quv yilidan boshlanganligini eslatib o‘tish joiz. Bunda mustaqil ta’lim aynan ana shu ijtimoiy ko‘nikmalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida choraklar kesimida o‘rganib baholab borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki 1 chorak natijalari 4 chorak yakuniga kelib ijobjiy tomonga o‘zgargan bo‘lishi kerak. Aks holda, mustaqil ta’lim o‘z natijasini bermagan hisoblanadi.

Bugungi kunda har bir boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxsiy manfaatlarni umummanfaatlarga uyg‘unlashtirish jarayoni kechmoqda. Bunga sabab boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kompyuterli texnologiyalar vositasida axborotlar olami bilan kirishayotganligi bo‘lmoqda. Axborot olamining ko‘pligi sharoitida shaxsnинг shaxsiy fazilatlarini ustuvor qo‘yish sharoiti yuzaga keladi va shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individual fazilatlari jamiyat ehtiyojlariga moslashtirib borilishi kerak. Bu jarayon mustaqil ta’limning amaliy mashg‘ulotlari va to‘garaklari vositasida amalga oshiriladi. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy manfaatlari umummanfaatlarga uyg‘unlashuviga 50 foizdan oshsa qoniqarli hisoblanadi va mustaqil ta’limning samaradorligi namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv boshlang‘ich sinflar kesimida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu sababli mazkur jarayonda o‘rganish va baholash monitoringi yoki diagnostika bo‘yicha mutaxassislar ishtirokida amalga oshirilishi kutilgan

samarani beradi.

Har bir boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarining umumiyligini ko‘nikmalari ko‘rsatkichlari o‘rganilib baholanishi kerak. Buning uchun sinf o‘quvchilarida shaxsiy va umumiyligini manfaatlarning uyg‘un tarkib topganligi, o‘zga sinflar o‘quvchilaridan farqli jihatlari hamda ulardagagi tadrijiy rivojlanish jarayoni o‘rganilib baholanadi. Bunday baholash jarayonida o‘quvchilar ruhiyatining rivojlanish dinamikasini ham hisobga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki o‘quvchilar 1-4 sinflarda ruhiy jihatdan to‘liq shakllanishi pedagogik metodologiya nuqtai nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi. Shu ma’noda har bir o‘quvchining yoki sinf o‘quvchilarining umumruhiyatini ko‘rsatkichlari baholanishi kerak. Bunda mustaqil ta’limning psixologik qonuniyatlarga asosan amalga oshirilganligi namoyon bo‘ladi. Shu sababli bu masalaga Rossiya Federatsiyasi boshlang‘ich ta’lim jarayonida amalga oshiriladigan baholashda asosiy e’tibor qaratiladi. Mamlakatimizda mustaqil ta’limning nazariy, didaktik va metodik asoslari takomillashib borayotganligi hisobga olib boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining umumiyligini ko‘nikma ko‘rsatkichlarini baholab borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim samaradorligini o‘quv yili yakuni asosida baholash. Boshlang‘ich ta’limda har bir o‘quv yili yakuni va uning natijalari boshqa ta’lim bosqichlariga nisbatan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim samaradorligini o‘quv yili yakuni bo‘yicha baholashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- 1) aniq fanlar bo‘yicha mustaqil ta’lim samaradorligini baholash;
- 2) tabiiy fanlar bo‘yicha mustaqil ta’lim samaradorligini baholash;
- 3) gumanitar fanlar bo‘yicha mustaqil ta’lim samaradorligini baholash.

Boshlang‘ich sinf o‘quv yili yakuni bo‘yicha aniq fanlarga doir mustaqil ta’lim samaradorligini o‘rganish va baholash muhim ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik tafakkuri va texnologik ko‘nikmalarining tarkib topganligini o‘rganib baholash taqozo etiladi. Chunki mamlakatimizda keyingi 10 yil davomida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining Matematika va IT texnologiya bo‘yicha ko‘nikmalarini ularning hayoqatiga mos ravishda tarkib toptirish jarayoni kechmoqda.

Bunda mustaqil ta'limning qo'shimcha ma'lumot berish darajasi o'rganilib tahlil qilinadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining aniq fanlar bo'yicha ko'nikmalarining kutilgan darajada shakllanganligi yoki bu borada murakkabliklarning mavjudligi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'linadi. Ana shu ma'lumotlar asosida aniq fanlar bo'yicha mustaqil ta'limning keyingi o'quv yiliga mo'ljallangan dasturi ishlab chiqiladi va O'qituvchi kitobiga kiritiladi. Shu tariqa mustaqil ta'limning imkoniyatlaridan foydalanish ko'lami kengayib boradi.

Gumantar fanlar bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yili yakunidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini baholash ham muhimdir. Bunda o'quvchilarining fikrlash darajasi, ularning bilim olishga qiziqish darajasi va ijodkorlik layoqatining rivojlanganlik darajasi o'rganilib baholanadi. Bu masalalar keyingi paytlarda o'quvchilarining matn ustida ishlash ko'nikmasini tarkib toptirishga ustuvor darajada ahamiyat berilayotganligini eslatib o'tish joiz. Aynan mana shu masalalarning mustaqil ta'limning samaradorligi baholanishi kerak. Chunki o'quv yili yakunida bir o'quv yili davomida mustaqil ta'lim vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining gumanitar fanlar asoslarini o'zlashtirishini o'rganish amaliy samardorlik ko'rsatkichlarini beradi. Bunday baholash jarayoni psixolog mutaxassislarning imkoniyatlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Eslatib o'tish joizki, o'quv yili yakunida o'quvchilarining gumanitar fanlar guruhi bo'yicha ko'nikmalarining shakllanganligi alohida baholanadi. Chunki ular kelgusida aynan shu yo'nalish bo'yicha ta'lim va tarbiya faoliyatiga tayyorlik ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu masalaga o'quv yili davomida mustaqil ta'lim vositasida e'tibor berib borilishi lozim.

O'quv yili yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini o'rganib va baholash ham zaruriyat hisoblanadi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiiy ilmiy bilimlarning tarkib topganligi, o'lkashunoslik asoslari bo'yicha ko'nikmaga egaligi va ularning tabiat hamda tabiiy hodisalarga munosabati ko'rsatkichlari o'rganilib baholanadi. Buning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatga tayyorlik bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'linadi. Chunki boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilar tabiiy rivojlanish bosqichini o'taydi. Shu sababli o'quv

yili yakunida har bir boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini alohida o'rganib baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy fanlar bo'yicha ko'nikmalarini baholash metodikasini har bir o'quv yili yakuniga asosan takomillashtirib borishga ehtiyoj mavjud. Chunki bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tabiiy o'quv fanlari bo'yicha yangi avlod darsliklari tajriba-sinovdan o'tkazilmoqda. Bunday sharoitda mustaqil ta'limni kuchaytirish va uning vositasida o'quvchilarining tabiiy fanlar asoslarini o'zlashtirish bo'yicha aniq ko'nikmalarini tarkib toptirish dolzarb bo'lib turibdi. Ayni paytda, darsliklarning tajriba-sinov muddatini maqbullashtirish lozim bo'ladi. Shu sababli o'quv yili yakuni bo'yicha o'quvchilarining tabiiy fanlarga oid ko'nikmalarini muntazam baholab borish muhim ahamiyatga egadir.

Shunday qilib boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning samaradorligi baholash muhim metodikalarga asoslanadi. Bunda sinflar kesimida baholash, choraklik kesimida baholash va o'quv yili yakuni bo'yicha baholash metodikalari muhimdir. Mazkur metodikalar asoslarini o'zlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3.3. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning istiqbolli tashhisi

Mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim sifatiga erishish jarayonida o'quvchilarining bilim ava o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu jihatdan mustaqil ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va o'zlashtirish ko'nikmalarini yuksaltirish, uning vositasida boshlang'ich ta'limda sifat ko'rsatkichlariga erishishning yangicha ta'lim shakllaridan biridir. Bu o'rinda e'tiboringizni boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning istiqbolli tashxisi masalasi tahliliga tortamiz.

Yaqin muddatli istiqbolli tashxis. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim ko'rsatkichlarini istiqbolli tashxislashda yaqin muddatli, ya'ni bir o'quv yiliga mo'ljallangan tashxislash muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, har bir boshlang'ich sinf o'quv yili yakunida o'quvchilarining

mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini o'rganilib baholanadi. Bunda quyidagilarga asoslaniladi:

- a) o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasi;
- b) har bir boshlang'ich sinfda amalga oshirilgan tarbiyaning ko'rsatkich darajasi;
- v) o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasi.

Mazkur asoslarga ko'ra har bir o'quv yili yakunida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlari baholanadi. Buning natijasida mustaqil ta'limning samaradorligi aniqlanib, kelgusida amalga oshiriladigan yo'nalishlar belgilab olinadi. Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda boshlang'ich ta'limda gumanitar fanlar o'quv dasturlari yangilanayotganligi va takomillashtirilayotganligi bois ular bo'yicha o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari ba'zida quyi baholanishni bermoqda. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarining xalqaro ta'lim dasturlari tadqiqotlarida faol ishtirok eta olmayotganligi kuzatiladi. Mana shu jihatdan mustaqil ta'lim samaradorligini yaqin muddat vositasida tashxislash ta'lim jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilab olishda qo'l keladi. Mazkur yaqin muddatli tashxislash muammolarni qanchalik namoyon qilsa, mustaqil ta'lim yo'nalishlarini shu qadar aniq belgilab olish imkoniyatlariga ega bo'linadi. Bunday tajriba Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimida tajriba*-sinov o'tganligini eslatib o'tish joiz.

O'rta muddatli tashxislash. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning istiqbolli tashxisida o'rta muddatli baholash jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, 1-2 sinflar va 3-4 sinflar o'quvchilarining mustaqil ta'lim vositasida bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishi alohida-alohida o'rganilib baholanadi. Bunda 1-2 sinflarda amalga oshiriladigan tashxislash jarayoni tashkiliy xarakterda bo'ladi va 3-4 sinflarda amalga oshiriladigan tashxislash jarayoni o'quvchilarining bilim va ko'nikma darajasini aniq baholash xususiyatiga ega bo'ladi. Shu sababli bunday tashxislashda quyidagilarga tayaniladi:

- a) 1-2 sinf o'quvchilarining o'quv fanlarini majmui tarzda o'zlashtirish ko'rsatkichlarini o'rganish;
- b) 3-4 sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarining davlat ta'lim standartlari hamda davlat talablariga mos darajada tarkib

topganligini o'rganish;

- v) amalga oshirilgan tashxis ma'lumotlari asosida mavjud muammolarni hal qilish yo'nalishlarini ishlab chiqish.

Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning o'rta muddatli istiqbolli tashxisi asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatini o'rganish va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining faoliyat ko'nikmalarini kengaytirishga yo'naltiriladi. O'rta muddatli tashxislash jarayoni o'quv fanlari dasturlari va darsliklarining yangi avlodini ishlab chiqishni birlamchi hisoblaydi. Chunki jamiyatning texnologik rivojlanib borish jarayonida o'quv fanlari mavzulari va o'quv materiallarini muntazam yangilab borishga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Bunday tajriba Amerika Qo'shma Shtatalari ta'lim muassasalari tajriba-sinovidan o'tgan. Shu sababli bu mamlakatda boshlang'ich ta'lim o'quv fanlari va dasturlari har bir o'quv yilda yangilanib, bugungi kun ehtiyojlariga moslashtirib boriladi. Demak, boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning o'rta muddatli istiqbolli tashxisida asosiy masala o'qitish va didaktik ta'minotning samaradorligidir. Eslatib o'tish joizki, mazkur tashxislash tajribasidan soydalangan holda bugungi kunda mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarining o'quv fanlarini muddatli o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirib borish mumkin. Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini har bir yangi yondashuv va o'zgarishlarga moslashib borishi kerak.

Uzoq muddatli tashxislash. Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning uzoq muddatli tashxislash jarayoni mamlakatimiz sharoitida 4 yilga, ya'ni 1-4 sinflar majmui tarzda tashxislashda asoslanadi. Bunday tashxislashda quyidagilar o'rganilib baholanadi:

- a) 1-4 sinflarda o'quv fanlarining mantiqiy izchillikka egaligi;
- b) 1-4 sinflarda o'quvchilarining bilim, ko'nikma va tarbiyalanganlik ko'rsatkichlarining dinamik rivojlanib borishi;
- v) 4-sinf bitiruvchi o'quvchilarining ta'limning keyingi bosqichi yoki ta'lim turlariga tayyorgarlik ko'nikmasining ko'rsatkichlari.

Mazkur uzoq muddatli tashxislash metodikasi mustaqil ta'limning boshlang'ich sinflarda samardorlik ko'lamini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki unda o'quv fanlarining izchilligi, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'nikmalarining tadrijiyligi va o'quvchilarining faoliyatga tayyorgarligi kabi masalalarning boshlang'ich ta'lim

o‘quv yillari kesimida rivojlanib borish jarayoni o‘rganib boriladi. Bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim o‘quv fanlari va dasturlarida bo‘layotgan o‘zgarishlar sharoitida ushbu uzoq muddatli tashxislash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining davlat ta’lim standartlari va davlat talablari asosida to‘g‘ri rivojlantirish, mamlakatimizda boshlang‘ich ta’limni zamon talablari asosida amalga oshirish va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini tezkor rivojlantirib borish imkoniyatlariga ega bo‘linadi. Negaki, tashxislash faqat muammoni aniqlash emas, balki ta’lim jarayonining tadrijiy va dinamik rivojlanishini ta’minlash strategiyasiga asoslanishdir. Shu sababli keyingi paytlarda YUNESKO dunyo mamlakatlari ta’lim muassasalariga uzoq muddatli tashxislash tizimidan foydalanishni muntazam tavsiya etib kelmoqda. Bugungi kunda mazkur tavsiyalarga amal qilayotgan Xitoy, Tayland, Indoneziya kabi mamlakatlarning milliy ta’lim tajribasi tarkib topdi. Shu ma’noda mamlakatimizda “O‘zbekiston-2030” strategiyasida boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishish istiqbolli yo‘nalish sifatida qabul qilinganligini hisobga olib, mazkur ta’lim bosqichini va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta’lim samaradorligini o‘rganib borishda uzoq muddatli tashxislash tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

E’tibor berilsa, boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning istiqbolli tashxisi tizimi muhim xususiyatlarga ega bo‘lib, ularga tayanish mustaqil ta’lim vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, o‘zlashtirish va tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirishga erishish mumkin.

Kezi kelganda ta’kidlash lozimki, boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida istiqbolli tashxislash tizimidan foydalanilar ekan, buning uchun bir necha yo‘nalishlarda amaliy ishlarni amalga oshirish zaruriyat bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz. Bunday amaliy ishlarning eng muhimlarini quyidagilar tashkil qildi:

- 1) oliv pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil ta’lim vositasida o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini tashxislash metodikasi bilan qurollantirish;

- 2) boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning istiqbolli tashxislash

tizimlari bo‘yicha amaliy, ilmiy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratib, amaliyatga tadbiq etish;

- 3) Abdulla Avloniy nomidagi pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish va ularning malakasini oshirish milliy tadqiqot instituti o‘quv dasturlari vositasida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining boshlang‘ich ta’limni tashxislash mahoratlarini rivojlantirib borish;

- 4) amalga oshiriladigan yaqin, o‘rtalama uzoq muddatli boshlang‘ich ta’lim tashxisini mutaxassislar, pedagog olimlar, ekspertlar va tajribali o‘qituvchilar ishtirokida maxsus reja asosida amalga oshirish hamda bunday tashxislash ma’lumotlarini viloyatlar kesimida tahlil qilish;

- 5) iqtidorli talabalarni tashxislash metodikasi muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishga yo‘naltirish.

Bularni amalga oshirish boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning samaradorligini istiqbolli baholab borish imkoniyatlarini beradi.

Shunday qilib boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning samaradorligi diagnostikasi muhim yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bunda mustaqil ta’lim samaradorligini baholashning sinflar kesimi, choraklik va o‘quv yili yakuni tashxislash shakllari, yaqin, o‘rtalama uzoq muddatli istiqbolli tashxislash shakllariga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bizning yondashuvimizga ko‘ra mustaqil ta’lim boshlang‘ich sinflarda ta’lim samaradorligini oshiruvchi eng muhim tizimlardan biridir. Shu sababli bu borada ilmiy-metodik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirib borish dolzarb bo‘lib turibdi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

- 1) Mamlakatimiz boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishishda eng avvalo o‘quvchilarining bilim va ko‘nikmalarini kutilgan darajada tarkib toptirish, bu ishni amalga oshirishda mustaqil ta’lim kabi samarali ta’lim shakllarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

- 2) Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim samaradorligini baholab borish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va o‘zlashtirish ko‘nikmalari sinflar kesimida, choraklik va o‘quv yili yakuni shakllarida o‘rganilib tashxislanishi

mustaqil ta'lim samaradorligini oshrishning muhim tayanchlaridan hisoblanadi.

3) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limning istiqbolli tashxisini amalga oshirib borish ham ilmiy va metodik jihatdan muhim imkoniyatlarni beradi. Bunda yaqin (bir o'quv yili davomida), o'rta (1-2 va 3-4 sinflarda) hamda uzoq muddatli (1-4 sinflarda) istiqbolli tashxislash tizimidan foydalanish kutilgan samarani beradi. Ayniqsa, bu borada uzoq muddatli istiqbolli tashxislash tizimining amaliy samaradorligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

4) Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim diagnostikasi nazariyasi, didaktikasi va metodikasi bilan qurollantirish ularning kasbiy tayyorgarlik ko'lamini kengaytiradi. Bu bilan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini boshlang'ich ta'lim bo'yicha kelgusi islohotlarga kasbiy tayyorlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish metodologiyasi masalasiga doir mazkur tadqiqotda quyidagi hulosalarga kelindi:

1) "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan boshlang'ich ta'lim sifatiga erishish islohotlari jarayonida ta'limning innovatsion va samarali shakllaridan foydalanib borish muhim o'rinn tutadi. Shu jihatdan mustaqil ta'lim ana shunday yangicha yondashuvlar va o'zgarishlar asosida amalga oshiriladigan zamonaviy ta'lim shakllaridan biridir.

2) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning ilmiy asoslari idrok etilishi kerak. Bunda hozirgi kundagi mustaqil ta'limning boshlang'ich sinflardagi mazmuni va uni tashkil qilish manbalarini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadqiqotda ana shu masalalar yoritilanligini eslatib o'tish joiz.

3) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilishning metodik omillarini aniq belgilab olish muhim ahamiyatga egadir. Shu jihatdan bu borada o'quv fanlarini o'qitish jarayonida mustaqil ta'limni tashkil qilish, to'garaklar mashg'ulotlari vositasida mutsaqil ta'limni tashkil qilish va individual yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikalariga asoslanish kutilgan samarani beradi. Mazkur tadqiqotda ana shu metodikalarning asoslari taqdim etildi.

4) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim samaradorligi diagnostikasini amalga oshirib borish ham muhim dolzarb masalalardan biridir. Chunki tashxislash vositasida mustaqil ta'limning samaradorligi aniqlanib, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish yo'llari ishlab chiqiladi. Bunda mustaqil ta'lim samaradorligini bugungi kun nuqtai nazaridan tashxislash va mustaqil ta'lim samaradorligini istiqbolli tashxislash shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5) Boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish metodologiyasi masalalari bo'yicha ilmiy, metodik va amaliy tadqiqotlar majmuuni yaratib borish dolzarb bo'lib turibdi.

Tadqiqotimizning xulosalari asosida quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

1. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf

o‘qituvchilari mustaqil ta’limni tashkil qilish metodologiyasi bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning ilmiy va metodik asoslari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar majmuini yaratish kutilgan samarani beradi.

3. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim samaradorligini diagnostika qilishning yangi ilmiy metodikasini ishlab chiqish va bunda mazkur masalani uzoq muddatli tashxislash tizimi vositasida o‘rganib baholab borish muhim ahamiyatga ega.

4. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tajribali boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta’lim bo‘yicha individual metodikalarini o‘rganish va ommalashtirish muhim vazifalardan biridir.

5. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim imkoniyatlardan foydalanish holda o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirish, ularning o‘zlashtirish ko‘nikmalarini yuksaltirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tajribalaridan foydalanish va mustaqil ta’limning imkoniyatlariiga tayanish bilan boshlang‘ich ta’lim sifatiga erishishning muhim omiliga ega bo‘linadi.

GLOSSARY

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim – boshlang‘ich sinflar, ya’ni 1-4 sinflar o‘quvchilarining o‘quv fanlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish maqsadida tashkil etiladigan individual ta’lim shakllaridan biri. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’lim umumiy o‘rta ta’lim yuqori sinflari mustaqil ta’limidan bevosita Ustozlarning nazorati, yo‘naltirishi va ular tomonidan beriladigan topshiriqlarning mustaqil bajarilishini baholash bilan farqlanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning ilmiy va metodik asoslari yangicha yondashuvlar asosida ishlab chiqilmoqda.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilish manbalari – boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning asosiy me’yoriy manbalari O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” va “Pedagog maqomi to‘g‘risida”gi Qonunlar, Milliy malakalar ramkasi, Davlat ta’lim standartlari va davlat talablari hamda mustaqil ta’lim o‘quv rejalarini va dasturlaridan iborat. Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limning pedagogik manbalarini milliy pedagogik meros, pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlari va jahon pedagogikasi asarlari tashkil qildi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil qilish manbalarini chuqur o‘zlashtirishi taqozo etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil qilishning ilmiy masalalari – boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil qilishning asosiy ilmiy masalalarini uning nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi tashkil qildi. Bu borada bugungi kunda yangi tadqiqotlar majmuini yaratish dolzarb bo‘lib turganligini eslatib o‘tish joiz.

Mustaqil ta’lim – olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘srimcha ma’lumotlar yoki materiallarni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shakli. Mustaqil ta’limda ta’lim oluvchilar mustaqil o‘qish, mustaqil o‘zlashtirish va mustaqil faoliyatni amalga oshiradi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘quv fanlarining mustaqil ta’lim qismi mavjud bo‘lib, unga asosan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va

malakalari chuqurlashtiriladi.

Mustaqil ta'limning maqsadi – mustaqil ta'limning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarni mustaqil o'qib o'rganish vositasida kasbiy kompetensiyalarini kengaytirishdan iborat. Mustaqil ta'limni tashkil etishda aynan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini kengaytirishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Mustaqil ta'lim texnologiyasi – mustaqil o'qib-o'rganishning samarali vositalari, metodlari va yondashuvlarining majmuidir. Bugungi kunda mustaqil ta'lim texnologiyasida kompyuter, TV kabi o'quv-texnik vositalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish ustuvor darajada ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqil ta'lim texnologiyasi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tomonidan oliy pedagogik ta'lim jarayonida o'zlashtiriladi.

Mustaqil ta'lim vazifalari – mustaqil o'qib-o'rganish asosida ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlanishi va ularni mustaqil faoliyatga yo'naltirishning muhim masalalari majmuidir. Bunda asosiy e'tibor ta'lim oluvchilarning vaqt me'yorlari va imkoniyatlariga qaratiladi.

Mustaqil ta'lim vositalari – mustaqil shaklda o'qib-o'rganiladigan tegishli pedagogik adabiyotlar, qo'shimcha ma'lumotlar va axborotlarni taqdim etuvchi bosma hamda elektron resurslar majmui. Bunda mustaqil ta'lim vositalaridan foydalangan holda kasbiy kompetensiyalar ko'lamini kengaytirish amalga oshiriladi. Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish oliy pedagogik ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim metodlari – mustaqil o'qib-o'rganishda tayaniladigan uslublar va usullar majmui. Bugungi kunda mustaqil ta'limning an'anaviy, masofaviy va mustaqil ta'lim metodlari ommalashib bormoqda. Bunda ayniqsa texnologik imkoniyatlar kengayib borayotganligini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'lim shakllari – bu muayyan o'quv fanlari yoki maxsus yondashuv asosida tashkil etiladigan mustaqil o'qib-o'rganish jarayonidir. Hozirgi kunda mustaqil ta'limning masofaviy, an'anaviy hamda elektron resursi shakllari keng amalda qo'llanmoqda. Shu sababli mustaqil ta'limning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish tajribasi tarkib topib bormoqda.

Mustaqil ta'limning amaliyoti – mustaqil ravishda o'qib-o'rganiladigan va o'zlashtiriladigan bilimlar, ko'nikmalar hamda malakalarni amaliy faoliyatda qo'llash tizimi. Bunda hozirgi kunda talabalarning haftalik pedagogik amaliyoti, "Talabalar akademiyasi" va talabalarning tashabbuslari shakllaridagi amaliyoti tarkib topdi. Shu sababli mazkur amaliyot vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish amalga oshirilmoqda.

Mustaqil ta'limni idrok etish – bu mustaqil o'qib-o'rganiladigan bilimlar hamda ko'nikmalarni tasavvur etishdan iborat. Mustaqil ta'lim vositasida o'zlashtiriladigan kompetensiyalar bo'lajak boshlang'ich sirnf o'qituvchilarida kasbiy malakaning yuqori bo'lishini ta'minlaydi va ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini kuchaytiradi.

Mustaqil ta'limni o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasi – boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni o'quv fanlarini o'qitish jarayonida tashkil qilish metodikasi asoslarini gumanitar, tabiiy va aniq fanlar turkumlari o'qitish jarayoni tashkil qiladi. Mazkur fanlar turkumi xususiyatlari mos ravishda boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish metodikasi turli xususiyatlarga ega bo'ladi, biroq uning asosiy vazifasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ushbu turkumdagagi o'quv fanlari bo'yicha bilim, o'zlashtirish va ko'nikma darajalarini yuksaltirishdan iborat.

Mustaqil ta'limni to'garak mashg'ulotlari vositasida tashkil qilish metodikasi – boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni to'garak mashg'ulotlari vositasida tashkil qilish metodikasi o'quv fanlari to'garaklari, o'quvchilarning fanlar turkumi bo'yicha to'garaklari va o'qituvchilarning to'garaklari vositasida tashkil qilinishiga asoslanadi. Bunday yondashuv boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limni tashkil qilish jarayonining rang-baranglilagini ta'minlaydi.

Mustaqil ta'lim diagnostikasi – boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'lim samaradorligini aniqlash va baholash diagnostikasi o'ziga xos yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Bunda boshlang'ich sinflar kesimida, choraklik kesimida va o'quv yili yakuni kesimi metodikasiga asosan diagnostika qilish samarali hisoblanadi. Chunki diagnostika jarayonida o'quvchilarning bilim va o'zlashtirish holati, ular duch kelayotgan murakkabliklar o'rganilib, bilim va

ko'nikmalarini o'zlashtirishning yangi yo'nalishlari ishlab chiqiladi. Shu jihatdan bugungi kunda boshlang'ich ta'limgan diagnostikasi muammolari bo'yicha ilmiy-metodik ishlamnalarni yaratish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki bugungi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'limgan jarayonida ta'limi, tarbiyaviy va amaliy islohotlar jarayoni kechmoqda. Islohotlar sharoitida boshlang'ich ta'limgan mustaqil ta'limgan samaradorligini diagnostika qilib borish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi.


Mustaqil ta'limgan istiqbolli diagnostikasi – boshlang'ich sinflar mustaqil ta'limgan istiqbolli diagnostikasi, ya'ni tashxisini amalga oshirish muayyan muddatlarga asoslanadi. Bunda yaqin muddat (bir o'quv yili davomida), o'rta muddat (1-2 sinflar davomida) va uzoq muddat (1-4 sinflar davomida) amalga oshriladigan tizimga asoslaniladi. Shu sababli bugungi kunda boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limgan istiqbolli diagnostikasi bo'yicha ilmiy-metodik ishlamnalarni yaratish dolzarb bo'lib turganligini eslatib o'tish joiz.

Mustaqil ta'limgan ahamiyati – boshlang'ich sinflarda mustaqil ta'limgan ahamiyati ta'limgan va tarbiya jarayonida pedagogik, individual va ijtimoiy zaruriyatlarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Mustaqil ta'limgan pedagogik ahamiyati boshlang'ich ta'limgan ta'limgan va tarbiya jarayonini kengaytirish, uning individual ahamiyati har bir boshlang'ich sinfi o'quvchisining bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda ijtimoiy ahamiyati esa boshlang'ich ta'limgan jarayonida sifat ko'rsatkichlariga erishish omiliga ega bo'lish bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli Qonuni. //www.ziyonet.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-maydag'i PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // my.gov.uz.
3. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. //www.ziyonet.uz.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldag'i "Pedagogik ta'limgan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623sonli Qarori.//www.ziyonet.uz.
- 5.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limgan tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi.// www.ziyonet.uz.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldag'i "Pedagogik ta'limgan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.//www.ziyonet.uz.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ilm-fan va ta'limgan-tarbiya sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.// www.ziyonet.uz.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-maydag'i "2022-2026 yillarda xalq ta'limgan tizimini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. // www.ziyonet.uz.
9. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezzulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir.-Toshkent, 2021
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent, 2022
11. Abdullayeva Sh., Seytov S., Xolikova G. Istorya pedagogiki.-T.: "Fan va texnologiya".2008.- 258 s.
12. Abdulxanova K.A. Deyatelnosti psixologiya lichnosti.-M.:VLADAS. 1980.- 210 s.
13. Abdujalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning oila va bola tarbiyasiga oid qarashlari. Ilmiy-ommabop risola.-T.: "Yozuvchi".2002.-70 b.
14. Abdujalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning "Tarbiya" fani talqini. Risola.-T.: "Vneshinvestrom".2020. -35b.

15. Bogolyubov V.I. Leksii po osnovam konstruirovaniya sovremennykh pedagogicheskix texnologiy. Pyatigorsk, Iz-vo PGLU, 2001. S-188 .
16. Mardonov Sh.Q. Pedagogika fanidan axborot-kommunikasion ta'minotni ishlab chiqish texnologiyasi.-T.: "Ishonchli hamkor".2021.- 110 b.
17. Mirkomilov M . Pedagogika nazariyasi. – T.:TDPI. 2008-310 b.
18. Muxamedov G.I., Xodjamkulov U.N., Toshtemirova S.A. "Pedagogik ta'lim innovasion klasteri" Monografiya. – T.: Universitet, 2019. -92 b.
19. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovasiya va integrasiyasi. – T.: "Ishonchli hamkor". 2021. – 198 b.
20. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi. – T.: “Zebo print”. 2022. – 112 b.
21. Jabborova O. Boshlang‘ich ta’lim metodikasining yangi nazariy masalalari. – T.: “Zebo print”. 2022. – 134 b.
22. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’lim diagnostikasi. – T.: “Zebo print”. 2023. – 106 b.
23. Jabborova O.M., Saparbayeva D.T. Boshlang‘ich ta’limda mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Chirchiq: “Zebo prints”. 2023. – 60 b.
24. Jumanova F. va boshq. Umumiyy pedagogika. -- T.: "Ishonchli hamkor". 2020. – 580 b.
25. Ochilov M. Muallim qalb me’mori. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2001. – 210 b.



Onaxon Jabborova, Dinoraxon Saparbayeva

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL QILISH METODOLOGIYASI

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliqo‘ziyeva

Musaxnih: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muxammadiyev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 08.07.2024 y.

Bichimi 60x84 1/16. Offset qog‘ozи.

“Times New Roman” garniturasi.

Xisob-nashr tabogi. 6,5.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 2423553.

«Renesains sari» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Nashriyot tel. raqami +998 (94) 673-66-56

ISBN 978-9910-9414-7-4



9 789910 941474